

O'ZBEKISTON MODDIY MADANIYATI TARIXI

№43 (I)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MODDIY
MADANIYATI TARIXI**

43-NASHRI

F. A. Maqsudov umumiy tahriri ostida

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«FAN» nashriyoti davlat korxonasi
Toshkent – 2022

UO‘K:930.85(1-925.3) (082)

BBK:63.3(50‘)

Bosh muharrir

F. A. Maqsudov

Tahririyat kengashi:

t.f.d., professor A. A. Abdurazzoqov, O‘zR FA akademigi A. A. Asqarov,
t.f.d., professor A. A. Anarbayev, t.f.d., professor R. H. Sulaymonov,
t.f.d. N. U. Xolmatov, t.f.d., professor T. Sh. Shirinov, t.f.n. M. A. Reutova,
t.f.d. G. Sh. Zununova, t.f.n. A. J. Iskanderova, t.f.n. J. K. Mirzaahmedov,
t.f.n. Sh. T. Odilov, t.f.n. M. H. Pardayev, t.f.n. S. R. Ilyasova, t.f.n. M. M. Saidov,
t.f.n. S. R. Baratov, t.f.n. D. H. Murodova, PhD Y. A. Gordeyeva

Taqrizchilar:

Tarix fanlar doktori, professor A. Ashirov
Tarix fanlar doktori, professor Sh. Nurmuhammedova

To‘plam shaharlar va shahar atroflarida arxeologik tadqiqotlar olib borish masalalariga, yangi binolar va shaharni rekonstruksiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar natijalariga, arxeologik yodgorliklarni tiklash va konservatsiya qilish muammolariga, shuningdek, arxeologiyaga oid fanlarga bag‘ishlangan. Xronologik diapazon tosh davridan to o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Metallurgiyaning rivojlanishi, qabriston va ibodatxona majmualari materiallari asosida mafkuraviy tushunchalarni shakllantirish, numizmatika, turar-joy me‘morchiligi, shuningdek, o‘troq va ko‘chmanchi madaniyat o‘rtasidagi munosabat masalalari yoritilgan.

To‘plam arxeologlar, tarixchilar, san‘atshunoslar, o‘lkashunoslar, oliy o‘quv yurtlarining gumanitar yo‘nalishdagi doktorantlar, magistrantlar va talabalarga, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining o‘tmish tarixi bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

ISBN978-9943-19-671-3

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР АРХЕОЛОГИИ
АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИСТОРИЯ МАТЕРИАЛЬНОЙ
КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА**

ВЫПУСК 43

Под общей редакцией Ф. А. Максудова

Издательство «Фан» АН РУз

Ташкент – 2022

УЎК:930.85(1-925.3) (082)
КБК:63.3(5Ў)

Главный редактор:
Ф. А. Максудов

Редакционная коллегия:
д.и.н., профессор А. А. Абдураззаков, академик АН РУз А. А. Аскарлов,
д.и.н., профессор А. Анарбаев, д.и.н., профессор Р. Х. Сулейманов,
д.и.н. Н. У. Холматов, д.и.н., профессор Т. Ш. Ширинов, к.и.н. М. А. Реутова,
д.и.н. Г. Ш.Зунунова, к.и.н. А. Дж. Искандерова, к.и.н. Ж. К. Мирзаахмедов,
к.и.н. Ш. Т. Адылов, к.и.н. М. Х. Пардаев, к.и.н. С. Р. Ильясова,
к.и.н. М. М. Саидов, к.и.н. С. Р. Баратов,
к.и.н. Д. Х. Муродова, PhD Е. А. Гордеева

Рецензенты:
д.и.н., профессор А. Аширов
д.и.н., профессор Ш. Нурмухаммедова

Сборник посвящен вопросам проведения археологических исследований в городах и пригородах, результатам исследования на новостройках и реконструкции городов, проблемы осуществления реставрации и консервации археологических объектов, а также связанных с археологией смежных наук. Хронологический диапазон, охватывает от эпохи каменного века до средневековья. Освещаются вопросы развития металлургии, сложения идеологических концепций на основе материалов погребальных и храмовых комплексов, нумизматики, архитектуры жилищ, а также взаимоотношения оседлой и кочевой культур.

Сборник предназначен для археологов, историков, искусствоведов, краеведов, докторантов, магистров и студентов гуманитарных ВУЗов, а также всех интересующихся историческим прошлым народов Центральной Азии.

ISBN978-9943-19-671-3

©Издательство «Фан»

**NATIONAL CENTER OF ARCHEOLOGY OF THE
ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

**THE HISTORY
OF MATERIAL CULTURE
OF UZBEKISTAN**

43 EDITION

Edited by F. A. Maksudov

AS RUz «Fan» Publishers

Tashkent – 2022

UO‘K:930.85(1-925.3) (082)
BBK:63.3(50‘)

Editor – in – Chief:

F. A. Maksudov

Editorial team:

Professor A. A. Abdurazzokov, Academician of the AS of the RUz A. A. Askarov,
Professor A. Anarbaev, Professor. R. H. Suleymanov, Dr. N. U. Kholmatov,
Professor T. Sh. Shirinov, PhD. M. A. Reutova, Dr. G. Sh. Zununova,
PhD. A. J. Iskanderova, PhD. Zh. K. Mirzaakhmedov, PhD. Sh. T. Adylov,
PhD. M. Kh. Pardaev, PhD. S. R. Ilyasova, PhD. M. M. Saidov,
PhD. S. R. Baratov, PhD. D. Kh. Murodova, PhD. E. A. Gordeeva

Reviewers:

Doctor of Historical Sciences, Professor A. Ashirov
Doctor of Historical Sciences, Professor Sh. Nurmukhammedova

The collection is devoted to the issues of conducting archaeological research in cities and suburbs, the results of research on new buildings and urban reconstruction, the problems of restoration and conservation of archaeological sites, as well as related sciences related to archeology. The chronological range spans from the Stone Age to the Middle Ages. The issues of the development of metallurgy, the formation of ideological concepts based on materials from burial and temple complexes, numismatics, dwelling architecture, as well as the relationship between sedentary and nomadic cultures are covered.

The collection is intended for archaeologists, historians, art historians, local historians, doctoral students, masters and students of humanitarian universities, as well as all those interested in the historical past of the peoples of Central Asia.

ISBN978-9943-19-671-3

I QISM / I ЧАСТЬ / PART I



«Oʻrta Osiyoning tarix oldi madaniyatlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Oʻzbekiston akademigi **Oʻtkir Islomovich Islomov** xotirasiga bagʻishlanadi

Материалы международной научно – практической конференции **«Доисторические культуры Средней Азии»**. Посвящается памяти академика Узбекистана **Уткира Исламовича Исламова**

Materials of the international scientific and practical conference **«Prehistoric cultures of Central Asia»** devoted to the memory academician of Uzbekistan **Utkir Islomovich Islomov**

O'QITUVCHILARIMIZNI ESLAYMIZ!

Kishilik jamiyatining tarixini, xususan, ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganish va uni tiklashda moddiy manbalar muhim o'rin tutadi. Qadimgi davr tarixini o'rganish yo'lida arxeologik yodgorliklarni izlab topish, o'rganish, moddiy manbalarni ilmiy muamolaga kiritish va ular orqali ibtidoiy davr tarixiy jarayonlarini tiklash mutaxassis olimlarning zimmasidagi muhim, o'z navbatida murakkab vazifalardan biri sanalgan. O'tkir Islomov butun umrini O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixini o'rganishga bag'ishlagan keksa arxeologlar avlodining yetakchi namoyondasi hisoblanib, mashaqqatli va o'z navbatida zafarli hayot yo'lini bosib o'tgan.

O'tkir Islomovning dastlabki ilmiy faoliyati Yaxyo G'ulomov boshchiligidagi Moxandaryo arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida Qizilqum cho'llarida joylashgan neolit-bronza davrlariga oid arxeologik yodgorliklarni o'rganishdan boshlagan. Tadqiqodchi ishtirokida Darbozaqir 1, 2, Zamonbobo yodgorliklarning o'rganilishi natijasida Kaltaminor madaniyatiga oid ma'lumotlar doirasi va hududining kengayishi barobarida bronza davriga oid Zomonbobo madaniyatining arxeologiya faniga kiritilishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, arxeolog olimning mezolit davri tarixini o'rganishdagi xizmatlari nihoyatda katta. Toshkent vohasidagi Qo'shilish makonida amalga oshirgan qazishmalar natijasida uni mezolit davrining ilk bosqichiga oid alohida madaniyati ajratgan. Machay g'ormakonida ikkita madaniy qatlamlardan mezolit davrining so'nggi bosqichiga oid ko'p sonli tosh qurollar va hayvon suyaklarini topib o'rganilgan. Tosh qurollar orasida mikrolit asosiy o'rin tutib, qayroqtosh (chopper, chopping) qurollar ham mavjud bo'lgan. Suyaklari orasida xonakilashgan hayvon turlarga oid nusxasining ko'plab uchrashiga asoslangan tadqiqodchiga ilk ishlab chiqarish xo'jaligi bilan bog'lagan. Arxeolog olim Farg'ona vodiysining tog'li

hududida Obishir (Obishir 1-5 va Toshko'mir), tekstlikda qadimgi ko'llar bo'yida (Ashiko'1 2, 3, 16, Yangiqadam 1, Toyloq 3,5,7 va boshqalar) mezolit-neolit davrlariga oid sal kam 80 dan ortiq joy-makonlarni o'rgangan. Tadqiqodchi Farg'ona vodiysining mezolit davriga oid barcha yodgorliklarini umumiy Obishir (IX-VIII ming yilliklar) madaniyati nomi bilan yuritib, hududning tog' qismida ilk-Obishir (g'ormakon) va so'nggi-Farg'ona (tekislik) - bosqichidan iborat ikki majmuaga ajratgan. Har ikkala majmuaning tosh qurollari plastinkasimon shakldagi toshlardan yasalgan.

Arxeolog olimning keyingi tadqiqodlari paleolit davri yodgorliklarini o'rganishdan iborat bo'lgan. Farg'ona vodiysidagi Seleng'urda amalga oshirgan qazishmalarda makonning beshta madaniy qatlamidan topilgan tosh qurollar, hayvon suyaklari va ibtidoiy odam suyaklarini tadqiqodchi ashel davrining ilk bosqichi bilan sanalab, O'rta Osiyoni antropogenez jarayoni erta qaror topgan hududlar doirasiga kiritgan.

O'tkir Islomovning O'zbekiston respublikasi mustaqilligi yillarida tadqiqotlari chet el ilmiy tadqiqod muassasalari bilan Toshkent vohasining Obiraxmat, Ko'lbuloq va boshqa paleolit davri yodgorliklarini o'rganishdan iborat bo'lgan. Obiraxmat g'ormakonida qayta tashkil etilgan qazishmalar natijasida amalga oshirilgan kalibrli (urantoriy, OSL, radiokarbon) tekshirishlar, uning madaniy qatlamlarini mil. avv. 80/70-40 ming yilliklarga qadimiylashtirgan.

Yetuk arxeolog mutaxassis, tosh davrining bilimdon olimi O'tkir Islomovning tosh davri arxeologiyasining rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shib, o'nga yaqin monografiyalar, bir necha yuz ilmiy maqolalar nashr qilgan va bir nechta nomzodlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan.

t.f.d. Farhod Maqsudov

Baxtiyor Sayfullaev, Sayyora Mirsoatova, Anvar Omonov, Ra'noxon Ahmadaliev

O'ZBEKISTONNING IBTIDOIY DAVR ARXELOGIYASI BO'YICHA YIRIK OLIM – O'TKIR ISLOMOVICH ISLOMOV 90 YOSHDA

Izoh: Maqola yirik olim, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi O'. I. Islomovning O'zbekiston ibtidoiy arxeologiyasini o'rganishda qo'shgan hissasiga bag'ishlanadi. O'. I. Islomov O'zbekiston hududida tosh davrining bir qator mutlaqo yangi madaniyatlarini kashf etdi. Masalan, ilk paleolit bo'yicha – Osiyochoa ashel madaniyati (Selungur g'ori materiallari asosida), ashel madaniyati (Jarsoy, Toshsoy va Qizilolma manzilgohlari materiallari asosida) 2); o'rta paleolit bo'yicha, levallua-muste madaniyati (Jarsoy-2 materiallari asosida) 3) o'rta paleolitdan so'nggi paleolitga o'tish davri madaniyati – Obiraxmat, Ko'lbuloq va Qizilolma-2 yodgorliklari materiallari asosida; 3) so'nggi paleolit bo'yicha – Toshkent so'nggi paleolit madaniyati (Obiraxmat, Ko'lbuloq va Qizilolma-2 va To'daxotin-1, 2 materiallari asosida); mezolit bo'yicha – Obishir madaniyati (Obishir-1-5 materiallari va Markaziy Farg'ona yodgorliklari materiallari asosida); Surxondaryo mezolit davri madaniyati (Machay, Ayritom va Sherobod manzilgohlari materiallari asosida); neolit davri bo'yicha – Kaltaminor madaniyatining Tuzkon varianti (Tuzkon topilmajoylari materiallari asosida) shular jumlasidandir.

O'. I. Islomov Darbozaqir makonida Kaltaminor madaniyatiga xos bo'lgan mutlaqo yangi turdagi turar-joy qoldiqlarini topib, ilmiy muomalaga kiritgan

Kalit so'zlar: Selungur, Obishir, Markaziy Farg'ona, Islomov, Darbozaqir-2, tosh industriya.

Kirish

Arxeologiya tarixi fanining bugungi taraqqiyot darajasida o'tmishdagi olimlarning biografik materiallari asosida "fan siymolalari"ni rekonstruksiya qilishga urinish va "shaxslarda namoyon bo'ladigan fan tarixi"ni yaratish alohida dolzarflik kasb etadi. Xususan, Vatanimiz arxeologiyasini o'rganish jarayonida "shaxs aspekti" muhim ahamiyatga ega. Ammo t.f.d., prof. O'zR FA akademigi, A. Beruniy nomidagi davlat mukofoti sohibi - O'. I. Islomov shaxsi va uning O'rta Osiyo arxeologiyasiga qo'shgan hissasi masalasi tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolib keldi.

O'. I. Islomovning olim sifatida ilmiy qiziqishlarini ibtidoiy davr arxeologiyasi, O'rta Osiyoning qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilishi muammolari, ibtidoiy populyasiyalarning migratsiyasi, tosh davri yodgorliklarining madaniy-davriy xususiyatlari va madaniyatlarning taraqqiy qilishi, ibtidoiy

xo'jalik va ma'naviy hayot, shuningdek paleoantropologiya va paleoekologiya masalalari tashkil qiladi.

O'. I. Islomov (1932-2013) – Vatanimiz tarixining XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi tosh davri arxeologiyasi bo'yicha yirik namoyondasi. 1960-2013 yillarda amalga oshirilgan qator arxeologik kashfiyotlar uning nomi bog'liqdir.

So'x vodiysida amalga oshirilgan tadqiqotlari.

Ilk paleolitga oid Selungur g'ori O'. I. Islomovning sinchkov tadqiqotlari tufayli dunyoga tanilgan. So'x vodiysida joylashgan bu g'orning dengiz sathidan balandligi 2000 m bo'lib, u 1955-yilda A. P. Okladnikov tomonidan ochilgan va 1964-yilda M. R. Qosimov g'orda qisqa tadqiqotlar olib borgan [38]. Yodgorlik A. Poshka tomonidan ham o'rganilgan[50]. Ammo Selungurni tizimli o'rganish ishlari 1980-yilda O'. I. Islomov tomonidan boshlangan. Natijada, yodgorlikdan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan va bu yerdagi

3-qatlam esa yana 3 ta mikroqatlamchalarga ajratilgan. Chuqurligi 8,5 m ga yetgan madaniy qatlamlarning qalinligi 20-40 sm dan 0,3-1 m oralig‘ida bo‘lgan [32; 35]. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan 30 turdagi yovvoyi hayvonlar suyaklaridan tashqari, ilk paleolit davriga oid 5000 ga yaqin tosh buyumlar topilgan [34].

Madaniy jihatdan Selungur g‘ori materiallari “Osiyocho ashel” madaniyatiga kiritilgan. Selungurning madaniy qatlamlaridan olingan namunalar ion-uran uslubi bo‘yicha 1,1-750 ming yillik sanalarni bergan va u Markaziy Osiyodagi eng qadimgi yodgorlik, deb talqin qilingan [35].

Selungurning 3-madaniy qatlamidan 6 ta odam tishlari aniqlangan bo‘lib, ular to‘rtta turli jinslarga mansub individlarga tegishli bo‘lgan. Shuningdek bu yerdan yosh bolaning yelka suyagi bo‘lagi ham topilgan.

Ilk paleolit davriga oid materiallar O‘. I. Islomov tomonidan So‘x daryosi terrassalaridan va Chashma qishlog‘i hududidan ham topib o‘rganilgan [33].

Ko‘lbuloq va uning atrofida o‘tkazilgan tadqiqotlar.

1994-1995-yillarda Ko‘lbuloq makoni va uning atroflarida O‘zbekiston-Rossiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi O‘. I. Islomov rahbarligida yodgorlikda “Ko‘lbuloq madaniyati”ning ajratilishi asoslanmaganligini isbotladi [1].

Ko‘lbuloqdan 1 km sharqroqdagi Qizilolma-2 toshga ishlov berish ustaxonasidan ilk paleolit davriga oid madaniy qatlam aniqlandi [1].

Ohangaron vodiysidan ilk paleolitga oid noyob Jarsoy-1 kompleksidan qo‘lcho‘qmorlari va atipik tosh boltalar yig‘ib olindi. Yodgorlik artefaktlarining katta qismi levallua texnikasi yordamida ishlov berilgan va bu industriyaning O‘zbekistonda o‘xshashi yo‘q [53].

So‘ngra, Jarsoy-2 topilmajoyi aniqlandi va bu yerdan yig‘ilgan tosh buyumlar o‘zining arxaikligi bilan ajralib turadi. Materiallar orasida qo‘pol qo‘lcho‘qmorlari va tosh boltalar

uchraydi. Shuning uchun ushbu kompleks ilk paleolit davri bilan sanalangan [1].

Ohangaron vodiysidagi Toshsoyning o‘ng qirg‘og‘idagi o‘rtancha terrasidan Toshsoy-1, 2 topilmajoylari aniqlandi va ulardan biri ilk, ikkinchisi esa o‘rta paleolitga oid deb topildi [1].

2007-yilda Ko‘lbuloq va uning atrofini o‘rganishning uchinchi bosqichi boshlandi [12] va unga O‘. I. Islomov va A. P. Derevyankolar boshchilik qilishdi. Tadqiqot ishlarini yangilashdan maqsad yodgorlikning stratigrafiyasini aniqlashtirishdan va uni tabiiy fanlar yordamida o‘rganishdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqotlarning yangi bosqichida (2007-2010 yy.) Ko‘lbuloqdan 12 ta stratigrafik qatlam aniqlandi. 5 m² maydonda tosh buyumlarga boy va buzilmagan ikkinchi va aralash uchinchi qatlamlar topildi.

Ko‘lbuloqning 2-10 qatlamlaridan OSL-usuli bo‘yicha sanalash uchun olingan namunalar so‘nggi paleolitning ikkinchi yarmiga oid sanalarni berdi (21-23 ming yillar).

Tadqiqot natijalari Ko‘lbuloqda tishsimon muste fatsiyasini ajratishning noto‘g‘riligini ko‘rsatdi [41]. Hududning tayanch yodgorliklari (Obiraxmat, Ko‘lbuloq) tosh buyumlari asosida o‘rtadan so‘nggi paleolitga o‘tish davri industriyalarining shakllanishi mexanizmi taklif qilindi: uchirindilar ishlab chiqarishga asoslangan teshik-tosh varianti va plastinalar ishlab chiqarilgan obiraxmat varianti [44].

Qizilolmasoy-2. 2007-2008-yillarda O‘zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasining paleolitchilar guruhi Qizilolma-2 ustaxonasida tadqiqotlarni davom ettirdi. 2008-yilda 8m² hajmli qazishma o‘tkazildi va yer sathidan 4 m chuqurlikkacha qazildi. Qazishmadan arxeologik materiallarga boy 3 ta litologik qatlam aniqlandi. Makonning bevosita kremniy xom ashyosi ustida joylashganligi va tosh artefaktlarining tarkibiga ko‘ra uni funksional jihatdan tom ma‘nodagi ustaxona deyish mumkin. Qizilolma-2 ustaxonasi so‘nggi paleolit davrining birinchi yarmiga oidligi aniqlandi [12].

Polto vodiysida olib borilgan tadqiqotlar.

1998-yilda Y. G'. G'ulomov nomidagi O'zR FA Arxeologiya instituti bilan RFA SB Arxeologiya, antropologiya va etnografiya instituti o'rtasida tuzilgan "O'zbekiston Respublikasi qadimgi tosh davri arxeologiyasi va paleoekologiyasi" mavzusidagi ilmiy loyiha asosida akademiklar O'. I. Islomov va A. P. Derevyankolar rahbarligida xalqaro kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Bu ekspeditsiyaning asosiy ish ob'ekti sifatida Toshkent viloyatidagi Obiraxmat g'ori tanlab olindi [13]. «Leakey Foundation» xalqaro fondi moliyaviy ko'magida amalga oshirilgan keng dastur asosida Obiraxmat makonining aniq sanasi mil.avv. 80-70 ming yillardan 30-ming yilliklarga ekanligi aniqlandi (radiouglerod, EPR, OSL va toriy-uran usullari asosida). Obiraxmat makoni industriyasining barcha qatlamlarda kuzatiladigan asosiy o'ziga xosligi texnologik va tipologik jihatdan o'rta va so'nggi paleolitga xos elementlarning birga uchrashida ekanligi aniqlandi. Yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar tufayli hududga umumiy asosga ega bo'lgan Yaqin Sharq, O'rta Osiyo va Oltoy hududlarida o'tish davri industriyalarining o'xshashligini va konvergent rivojlanganligini tushuntirib beradigan o'rta paleolit davri odamlarining migratsiyasi haqidagi g'oya ilgari surildi [11].

2003-yilning yozida Obiraxmatning mil. avv. 70-60 ming yillar bilan sanalangan 16-madaniy qatlamidan qadimgi odam suyak qoldiqlari topildi va ilk marotaba o'tish davri industriyalarini odamning konkret jismoniy tipi bilan bog'lash imkoni tug'ildi. Obiraxmat odami neandertal tipidagi odamning zamonaviy odam bilan aralashgan xarakteristikalarini berdi va uning ayrim parametrlari hozirda mavjud bo'lgan paleoantropologik ma'lumotlar orasida o'xshashi yo'q [9].

To'daxotin-1 va 2 makonlari.

2005-yilning avgustida O'zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan Poltov daryosining o'rta oqimidagi o'ng

sohil ikkinchi terrasasidan, daryo sathidan 30 m balandlikda ikkita topilmajoy aniqlandi. Punktlar bir-biridan 140 m masofada joylashgan va shu joydagi tog' qoyasi nomi bilan – To'daxotin 1 va 2 deb nomlandi. To'daxotin-1 yodgorligidagi qazishma maydoni 9 kv m ni tashkil qildi, To'daxotin-2 da esa bu maydon 6 kv m ni egalladi.

To'daxotin-1 (43 ta) va 2 (146 ta) makonlarining tosh buyumlari orasida tosh qurollar, nukleuslar, plastina siniqlari va uchirindilar mavjud.

To'daxotin-2 makoninidan 8 ta madaniy gorizont aniqlangan. Bu yerdan ko'p sonli hayvon suyaklari, tishlari va mayda ko'mir qoldiqlari topilgan [38]. Barcha qatlamlarda uchburchak mikrolitlar mavjud va kesmalarga ko'ra ularning soni pastdan yuqoriga qarab ortib boradi.

Shunday qilib, To'daxotin-2 makoni kompleksi tosh inventari taraqqiyoti yagona an'ana doirasida sodir bo'lganligi aniqlandi. Yodgorlikning 4-qatlamidan olingan uchta suyak va ko'mir qoldiqlari asosidagi namunalar 23800±190 dan 21850±180 yillar oralig'idagi sanalarni berdi.

Janubiy O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar.

2002-2003-yillarda O'zbekistonning tosh davrini o'rganish bo'yicha O'zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi Boysuntog'da Amir-Temir-1 va Teshik-tosh-2 [47] kabi yodgorliklarni tadqiq qildi [15].

Teshik-tosh-2 topilmajoyi. Yodgorlik Teshik-tosh-1 g'oridan taxminan 100 m lar chamasi pastroqda, Zavtolosh darasi bo'ylab birinchi g'or bilan bitta qayirda, dengiz sathidan – 1875 m mutloq balandlikda joylashgan. 2003-yilda yodgorlikda 3x4 m hajmli qazishma amalga oshirildi (12 m²) va 7 m chuqurlikkacha yetkazildi. Teshik-tosh-2 g'orining g'ovak qatlamlaridan (17 ta) 28 ta tosh buyum yig'ib olingan [15].

Amir-Temir-1 g'ori. G'or Yuqori Machay qishlog'idann 2,5 km g'arbroqda, shu nomli soyning yuqorisida joylashgan va

mutloq balandligi 1740 m. A.P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan ushbu g'orning madaniy qatlamlaridan gulxan va bir necha hayvon suyaklarining mayda bo'laklari qoldiqlari hamda qora kremniylashgan oxatoshdan ishlangan o'rtacha hajmli uchirindi topildi [15].

Shunday qilib, O'. I. Islomov tomonidan O'zbekistonning qadimgi tosh davri yodgorliklarini tadqiq qilish ishlari XX asrning 80-yillaridan boshlanib, umrlarining oxirigacha davom ettirildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin dunyoning yetakchi arxeologiya markazlarida yurtimizning eng qadimgi o'tmishini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. O'zbekiston FA Arxeologiya instituti bilan Rossiyaning tosh davrini o'rganish bo'yicha yetakchi ilmiy markazlari o'rtasida shartnomalar tuzildi va O'. I. Islomov bu ishlarning boshida turdi.

O'. I. Islomovning O'zbekiston mezolitini o'rganishga qo'shgan hissasi.

O'. I. Islomov O'zbekistonda ibtidoiy davr arxeologiyasini o'rganishni Kaltaminor madaniyatini tadqiq qilishdan boshlagan bo'lsada, uning insoniyat tarixidagi barcha boshlamalarning boshlanishini siru-asrorlarini bilishga qiziqishi tinchlik bermadi. O'.I. Islomov tomonidan O'zbekiston hududidan Tosh-Ko'mir, Obishir-1, 5, Markaziy Farg'ona, Qo'shilish, Machay, Oqtosh, Sherobod kabi mezolit davri yodgorliklari o'rganildi va ular uchta mustaqil madaniyatlariga birlashtirildi [18].

Obishir 1-5 makonlarining o'rganilishi.

Obishir 1-5 g'or makonlari So'x daryosining yuqorisida, shu nomli qishloq yaqinida joylashgan. G'orlar Obishirsoyning o'ng sohiliga tutashgan.

Obishir-1 g'orining qazishmalaridan tosh buyumlar bilan birga kam sonli mayda shoxli hayvonlarning naysimon suyaklari topilgan. Obishir-1 uzoq muddatli ovchilar makoni bo'lmagan, bu yerda asosan, tosh qurollar yasash faoliyati olib borilgan. Obishir-1 g'orini

makon-ustaxona deyish mumkin.

Obishir-5 g'orida Obishir-1 dagiga nisbatan topilmalar ancha ko'p uchraydi va ularning katta qismi makonning 1-qatlamidan topilgan. Tosh buyumlari orasida qurollar nisbati yuqori. Qatlamdan taqinchoqlar ham aniqlangan. Obishir-5 g'oridagi topilmalarning xarakteri, hayvon suyaklarining ko'pligi va qurollar tiplarining turlichaligi bois, uni ham makon-ustaxona deyish mumkin.

Obishir g'orlarining tosh industriyasi ushbu madaniyatning asta-sekin evolyusiyasini, ilk mezolitdan uning o'rta bosqichiga uzluksiz o'sib o'tayotganini aks ettiradi.

Obishirning industriyasi Old Osiyo hududida mil.avv. VIII ming yilliklar bilan sanalangan industriyalarga tipologik jihatdan o'xshashliklarga ega. Industriyalarining ancha rivojlangan xarakterini hisobga olib, Obishir mil.avv. X-VIII ming yilliklar bilan sanalangan.

Tosh-Ko'mir g'or makonining o'rganilishi.

Yodgorlik Qatrantovning janubiy etaklarida, So'x vodiysidagi Obishirsoyning o'ng sohilida joylashgan va u Farg'ona kompleksining boshqa yodgorliklaridan industriyasida yirik, uzunchoq segmentlarning va poki tipidagi tosh pichoqlarning mavjudligi bilan farq qiladi.

Xulosa qilinishicha, Farg'ona kompleksiga kiruvchi yodgorliklarning ko'pgina qurollari o'xshash va ularni yagona madaniyatga birlashtirish mumkin [19]. Obishir madaniyati Farg'ona vodiysining nafaqat tog'li tumanlarida, balki tekislik tegralariga ham tarqalgan bo'lgan va bu haqda Markaziy Farg'onadan topilgan yodgorliklar guvohlik beradi [29].

Markaziy Farg'ona mezolit davri yodgorliklarining o'rganilishi. Markaziy Farg'ona yodgorliklari mikrolitoid chaqmoqlash texnikasining ustunligi bilan xarakterlanadi (60%). To'plamda turli-tuman qirg'ichchalar, shatelperron va gravetti tipidagi tig'lar, segmenlar hamda mikrotrapetsiyalar, retushlangan yirik plastinalar, qalamsimon

va prizmatik nukleuslar, marmarlashgan oxaktoshlardan ishlangan yumaloq munchoqlar mavjud. Galkali qurollar uchramaydi [30].

Shunday qilib, Obishir-1, 5, Tosh-Ko'mir va Farg'onaning tekislikdagi yodgorliklari bitta madaniyatning turli taraqqiyot bosqichlarini o'zida aks ettiradi. O'. I. Islomovning fikricha, hududdagi g'or yodgorliklari Obishir madaniyatining ilk bosqichlarini, tekislikdagi yodgorliklar esa so'nggi bosqichlarini namoyon qiladi [21].

O'. I. Islomovning ma'lumotlariga ko'ra, Obishir-1, 5 g'or makonlarini mezolitning o'rtalari bilan sanalash lozim va bu raqamlarda mil.avv. IX-VIII ming yilliklarga mos keladi.

Farg'ona mezolitining ilk bosqichini sanalash uchun Tutkovulning 2-gorizontidan olingan radiouglerod sanalar bilan analogiyalar xizmat qiladi, negaki uning ushbu gorizonti mil.avv. IX-VIII ming yilliklar bilan sanalangan qatlamning tagida yotadi [55]. Tosh-Ko'mirning materiallari esa Tutkovulning 2-qatlami buyumlaridan arxaiyroq ko'rinishga ega. Bular segmentlarda hamda ularga o'xshash shatelperron tipidagi tig'larda namoyon bo'ladi. Bu xolat Obishir madaniyatining ilk bosqichini mil.avv. IX ming yilliklar bilan sanalash imkonini beradi. Shunday qilib, Obishir madaniyatining sanasi mil.avv. X-VII ming yilliklarni qamrab oladi.

Obishir madaniyati Markaziy Farg'onaning neolit davri madaniyatining shakllanishida va rivojlanishida muhim rol o'ynagan [43].

Qo'shilish makonining o'rganilishi.

Toshkent rayonida joylashgan Qo'shilish makoni 1967-yilda O'. I. Islomov tomonidan qazib o'rganilgan. Makon shu yerdagi kanalning terrasasida, uning suvi sathidan 7-8 m balandlikda joylashgan. Bu yerdagi lessimon tuproqning qalinligi 7 m ga yetadi.

Hayvon suyaklari qazishmada makonning janubiy qismida to'planganligi aniqlandi. Makonning shimoliy qismida aksincha, tosh buyumlar ko'plab uchraydi va suyak qoldiqlari deyarli mavjud emas. Aftidan, bunday

joylashuv tasodifiy emas [31]. Makonning qurollari orasida qirg'ichchalar, iskanalar, randalar, pichoqlar, kesgichchalar va atigi ikkita nukleuslar mavjud.

Janubiy O'zbekistonning mezolit davri yodgorliklari.

O'. I. Islomov Janubiy O'zbekistonning mezolit davrini o'rganishda ham katta hissa qo'shdi. Bu yerda u Machay g'ori, Ayritom, Oqtosh va Eski Termiz topilmalari kabi qator mezolit davri yodgorliklarini o'rganish ishlarini davom ettirdi. O'. Islomovning kashfiyotlaridan biri Surxon vohasida Oqtosh toshga ishlov berish ustaxonalarini ochib o'rganilishi bo'ldi.

Ayritom yodgorligi Amudaryoning terrasasida, daryo sathidan 25 m balandlikda joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlarni antik davr odamlari tomonidan qurilish ishlari jarayonida buzib yuborilgan.

Eski Termizdan yig'ilgan materiallar orasida konussimon nukleus, pichoqsimon plastina bo'laklari va ulardan birining uch qismida ishlangan qirg'ichcha hamda retushlangan uchirindilar aniqlangan [26].

Machay g'ori. Machaydara dastavval 1931-1934-yillarda tadqiqot ob'ektiga aylangan [8; 49]. Natijada g'orda ikkita – muste va mezolit davrlariga oid madaniy qatlam aniqlangan.

1970-1971-yillarda O'zR FA AI Surxondaryo paleolitchilar guruhi O'. I. Islomov boshchiligida Machaydarada arxeologik tadqiqotlar olib bordi.

Machay g'ori Machaydaryoning o'ng sohilida, O'rta va Yuqori Machay qishloqlari oralig'ida joylashgan. G'orning daryo sathidan balandligi 70 m [22].

Qazishmalarda ikkita madaniy qatlam aniqlanib, undan tosh va suyak buyumlar hamda hayvon suyaklari topilgan. Ochilgan maydon to'liq ko'mir qoldiqlariga ega edi. Qazishmaning markaziy qismida, 1,1 m chuqurlikdan 4 ta odam jag'ining bo'lagi va tishlari topildi [25], ulardan biri katta yoshdagi erkak kishiga, 2-chanoq yosh ayolga, 3 va 4-bosh chanoqlar bolalarga tegishli [23].

Machay g'orida 1971-1972-yillarda olib

borilgan O‘. I. Islomov qazishmalari asosida yodgorlikning har ikkala qatlamini ham mezolit davri bilan sanalandi.

1970-1971-yillardagi qazish ishlari jarayonida boy osteologik materiallar qo‘lga kiritildi [5]. Tosh inventari nukleuslar, plastinalar, plastinkalar, uchirindilar, tosh siniqlari, uchirindilardan ishlangan qurollar, galkali qurollardan iborat. Barcha tosh buyumlarning 50 % dan ortig‘i uchirindilardan tarkib topgan. Ammo tosh qurollar soni ham kam emas.

Machay g‘orining final-mezolitga oid yoshi borasida uning yuqori qatlamidan olingan namunalar radiokarbon tahlillarga ko‘ra mil.avv 7550±110 yillik sanalarni bergan. Machayni O‘. I. Islomov mezolitdan neolit davriga o‘tish davrini aks ettirgan yodgorlik sifatida qaraydi.

Machay makonini alohida madaniyatga ajratish uchun uning ishlab chiqaruvchi xarakteridagi xo‘jaligi haqidagi ma‘lumotlar xizmat qiladi.

O‘. I. Islomovning O‘zbekiston neolitini o‘rganishdagi roli.

O‘. I. Islomovning arxeolog sifatidagi faoliyati 1960-yilda Quyil Zarafshon havzasidagi neolit davriga oid Tuzkon yodgorliklarini o‘rganishdan boshlangan [16; 17].

Moxondaryo Zarafshon daryosining qadimgi o‘zani bo‘lib, u Buxoroning Qorako‘l tumani orqali Qizilqumdan o‘tib Amudaryoga quyilgan. U o‘z yo‘lida bir qancha ko‘llar hosil qilgan. Neolit davri odamlari ushbu ko‘llar atrofida manzilgohlar qurishib, hayot kechirishgan. Bu yerdan 50 ga yaqin manzilgoh topilib, shundan 2 tasida madaniy qatlamlar aniqlangan. Hozir bu joylar Kichik Tuzkon va Katta Tuzkon makonlari nomlari bilan yuritiladi.

Tuzkon makonlari ilk Kaltaminor madaniyatining mahalliy variantlari doirasiga kiradi.

Dorbozaqir I makoni. Bu makon Katta-Tuzkonning shimoliy-g‘arbiy tomonida va Katta-Tuzkon 25 makonidan 600-700 m shimoliy-g‘arbda joylashgan. Bu yerda

madaniy qatlamlarning saqlanib qolishining sababi shundaki, yodgorlik Katta-Tuzkon ko‘lining sohilida, janubiy-g‘arbiy tomondan baland tabiiy qum tepalik tagida joylashgan va u makonni shimoliy va shimoliy-sharqiy shamollardan to‘siq turgan.

1961-yilning kuzida makonda keng qamrovli qazishmalar o‘tkazilgan. Dorbozaqir I uchta qatlamli makon ekanligi aniqlandi. Yodgorlikni 4 marotaba suv bosgan. Bu yerdagi yotqiziqlarning umumiy qalinligi 3,7—3,8 m. Makonning har uchala qatlamidan olingan sopol va kremniy buyumlar sezilarli o‘zgarishlarga uchramagan.

Dorbozaqirning yuqori qatlami 2 500 m² (50X50) maydonda qazildi va kvadratlarga ajratildi (2x2). Makonning buzilmagan yuqori qatlamidan ikkita silliqlangan tosh bolta, qirg‘ichchalar, parmalagichlar, randalar, bigizlar va boshqa buyumlarlar topildi. Ikkinchi madaniy qatlamdan bir nechta gulxan qoldiqlari aniqlandi.

Makonning uchinchi madaniy qatlami qalin va juda topilmalarga boy. Bu yerdan o‘choqlar hamda uy-joy qoldiqlari aniqlandi. Qatlam taqirda yotganligi uchun ustun o‘ralari va o‘choqlar yaxshi saqlangan.

Madaniy qoldiqlar orasida kremniy qurollar, pardozlangan boltalar (2 ta), to‘lqinsimon naqshli sopol idishlar bo‘laklari va hayvon suyaklari uchraydi. H. M. Yermolovning aniqlashicha, kolleksiyada tulki va jayron suyaklari qoldiqlari mavjud [10].

Bu joydagi uyning poli tekis va deyarli to‘g‘ri burchakli, 81 m². Uy ichki qismi anchayin simmetrik tarzda joylashgan oralig‘i uncha katta (1-1,5 m) bo‘lmagan o‘ralar bilan o‘ralgan. Ustun o‘ralari uyning ichki qismini hamda tashqi perimetrini chegaralab turgan ikki qator bo‘lib joylashgan. Ular bir-biriga ustma-ust joylashgan ikkita to‘g‘ri burchak shaklida bo‘lgan; bu to‘g‘ri burchaklar orasidagi masofa 0,5 m ni tashkil qilgan. Ustunlarning ichki qatori uyning tomini ushlab turgan bo‘lsa, tashqi qatori aftidan, devorlarning karkasi

vazifasini o'tagan.

Uyning poli tozalanganidan so'ng, uning markazida ikkita yumaloq shaklli o'ra aniqlandi. Ularning hajmi boshqalaridan ko'ra kattaroq bo'lib, aftidan, ular katta tayanch ustunlarni o'rnatishda qo'llanilgan. Xuddi shunday chuqurchalar uyning to'rtala burchagidan ham aniqlangan.

Umumiy maydoni — 7x11,6 m bo'lgan bu uyning sharq tomonda joylashgan kirish qismining eni— 1,2 m ni tashkil qiladi. Sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan uy yer ustiga qurilgan, chayla tipidagi yengil yog'och sinchli bo'lgan, tomi esa aftidan, qamish bilan yopilgan. O'choqlar uyning tashqarisida, undan shimoliy-g'arb va janubiy-g'arb tomonlarida joylashgan.

Yodgorlikdan jami 3 731 ta tosh buyum yig'ib olingan, ulardan taxminan 35 % mehnat qurollari, qolganlari — ishlab chiqarish chiqitlaridan iborat [42].

Dorbazaqirda suyak qurollardan ham foydalanilgan. Ammo ularning barchasi uchinchi madaniy qatlamdan topilgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, 3-qatlamdan olingan sopol idishlar naqshlarga boy. Ularda to'lqinsimon-tasmasimon, ichki qismi chiziqlar bilan to'ldirilgan - uchburchaksimon, mayda gorizontalar o'yama naqshlar va h.k.lar uchraydi. Bunday boy kompozitsiyalar birinchi va ikkinchi qatlamlarda uchramaydi.

Ikkinchi qatlamning sopol idishlari uchun yupqa va egik kurakchasimon o'yama chiziqlar qatorlari, gorizontalar tasmasimon, parallel kurakchasimon, bilinar-bilinmas chiziqlar bilan birlashtirilgan va o'tkir tayoqcha yordamida o'yilgan qatorlar xarakterlidir.

Yuqori qatlamning sopol idishlari uchun esa parallel va ikki qator tayoqchalar yordamida o'yib chizilgan hamda vertikal kalta tasmasimon chiziqlarni birlashtirgan, o'yama tayoqchasimon naqshlar xarakterli. Bu yerda sopol idishlar ikkinchi va uchinchi qatlamlardagidek naqshlarga boy emasligi aniqlangan [10].

Dorbazaqir II makoni. Makon sharqiy

tomonidagi platosimon tepalik etagida, Katta-Tuzkonning sharqiy tomonida joylashgan. Bu yerda qazishmalar 208 m² ga yetkazilgan.

Ma'lum bo'lishicha, makon bir martalik mavsumiy qo'nalqox bo'lgan. Unda o'choqlar asosan shimoliy-g'arbiy burchakda joylashgan va tuxumsimon yoki yumaloq shaklga ega. Chuqurligi esa 40—45 sm.

Dorbazaqir II makonidan jami 584 ta tosh buyum aniqlangan bo'lib, ulardan taxminan 35 % mehnat qurollari, qolganlari esa ishlab chiqarish chiqitlaridir. Makondan chig'anoqlardan ishlangan silindr shaklidagi uzunchoq munchoqlar va marmardan ishlangan taqinchoqlar topilgan.

Dorbazaqir II makonining sopol idishlari Dorbazaqir I dagiga o'xshash, naqshlarga boy va bu Kaltaminorning ilk bosqichi uchun xos xususiyat hisoblanadi [4].

Moxondaryo topilmajoylari. Ekspeditsiya tomonidan Moxondaryo o'zanidan 50 ga yaqin topilmajoylar ochib o'rganildi. Natijada, ko'plab kremniy va sopol buyumlar qo'lga kiritildi.

1960-1964-yillarda Katta va Kichik-Tuzkon makonlaridan tosh qurollarning ulkan kolleksiyasi yig'ib olindi. Ular jami 11 230 ta bo'lib, shundan 45 % — mehnat qurollari va qolganlari—chiqitlardan iborat [10].

Katta Tuzkonning janubiy-g'arbiy qismida va Qashqadaryoning quyi oqimlarida joylashgan makonlarda sopol qoldiqlari umuman topilmadi. Ammo ularda o'ziga xos kamon uchlari aniqlandi. Ular odatiy kaltaminor tipidagi o'qlardan farq qilib, uzun qo'ndoqqa va kalta tig'ga ega. Bunday o'qlarning o'ta qadimiy ekanligini Jebel g'orining so'nggi mezolit davriga oid qatlamidan aynan shunday o'q topilganligi isbotlaydi [48]. A. V. Vinogradov tomonidan Kaltaminordan topilgan bunday o'qlar ushbu madaniyatining ilk bosqichlariga kiritganligi bejiz emas [6].

Barcha parametrlariga ko'ra Tuzkon makonlari kaltaminorning ilk bosqichlariga oidligini ko'rsatadi. Ilk Kaltaminorning xronologiyasiga asoslangan xolda Dorbazaqir

makoni 3-qatlamini mil.avv. IV ming yillik oxirlari yoki III ming yillik boshlari bilan sanalangan. Negaki 3-qatlamda devorlari to'liq naqshlar bilan qoplangan idishlar og'iz qismining yuqori qismigina naqshlangan idishlardan ko'ra ikki marta ko'p uchraydi. Bundan tashqari, 3-qatlam sopol idishlarida asosan to'liqinsimon-tasmasimon chiziqlar va chizma naqshlar uchraydi va bu ilk Kaltaminor bosqichiga xosdir. 2-qatlamda to'liqinsimon naqshlar bilan birga o'yma naqshinkorlik paydo bo'ladikim, bu so'nggi Kaltaminor bosqichining belgisi hisoblanadi. Naqshlarning tikligi va murakkabligi zaiflashadi, ko'pincha tayoqcha yordamida bosma naqshlar uchraydi. Shuning uchun yodgorlikning ikkinchi qatlamini mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmi bilan sanalash mumkin. Yuqori qatlamda tayoqcha yordamida bosma naqshlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Yuqori qatlamni mil.avv. III ming yillikning o'rtalari bilan sanalash joiz.

Ko'p qatlamli Dorbazaqir makonining xronologiyasiga asoslanib Moxondaryoning qolgan yodgorliklari ham sanalangan. Dorbazaqir II makonidan 921 tosh buyum topilgan va ular ilk Kaltaminor bosqichi bilan sanalangan [10].

Markaziy Farg'ona neolit madaniyati.

O'. I. Islomovning sa'y-harakatlari tufayli Markaziy Farg'ona hududidagi Qoraqalpoq dashtidan mutlaqo yangi va o'ziga xos madaniyat yodgorliklari o'rganildi va ilmiy muomalaga kiritildi. Neolit davrining boshlariga oid "Farg'ona kompleksi" G. F. Korobkova tomonidan Y. A. Zadneprovskiy yig'ib olgan katta kolleksiya asosida ajratilgan [43]. Biroq O'. I. Islomov bu kompleksni Markaziy Farg'ona neolit madaniyati, deb atadi [33].

Markaziy Farg'ona neolit madaniyati materiallarini sanalashda ular sopol buyumlarning va ishlab chiqaruvchi elementlarning yo'qligini hisobga olish zarur. Yodgorliklarda mikrolitizmning yuqoriligi va industriyalarning Obishir madaniyatidan o'sib chiqqanligini hisobga olib, Markaziy Farg'ona madaniyatini neolit davrining boshlari bilan

sanalash lozim [16]. Neolit davrining so'nggi bosqichlariga ehtimol, Markaziy Farg'onaning shimolidagi topilmajoylar kiradi. Ular plastinalarining yirik hajmdaligi bilan, neolitga oid qirtishlovchi va qator boshqa buyumlari bilan xarakterlanadi (Madyor 3, 4 va h.k.lar).

Markaziy Farg'ona komplekslarida tosh munchoqlar ko'p uchraydi va ularning 115 xil turlari qayd qilingan. Markaziy Farg'ona neoliti buyumlarining katta qismi Obishir madaniyati komplekslaridan ma'lum va bu ularning genetik jihatdan bog'liqligini ko'rsatadi [16].

O'. I. Islomov ilmiy xulosalarida obyektiv va subyektiv omillar.

Tadqiqotchining ilmiy xulosalari, odatda, o'sha davr fani taraqqiyotining rivojlanish darajasi doirasidan chetga chiqmaydi.

Selungurg'orining tabiiy fanlaryordamida sanalanishi masalasida ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 80-yillarida tabiiy fanlar, ayniqsa, ion-uranium usuli bilan sanalash hali unchalik keng tarqalmagan edi. Tahlillar Toshkentdagi Kimyo institutida o'tkazilgan. Bundan tashqari, tahlilga topshirilgan na'munalarda metodologik jihatdan to'g'ri tanlanmagan.

Mezolit davriga oid Obishir 1-5 g'orlari materiallarini G. F. Korobkova analogiyalar asosida mil.avv. VII ming yilliklar bilan sanalagan bo'lsa, O'tkir Islomovich bu sanani qadimiylashtiradi va mil. avv. IX-VIII ming yilliklarga oid deb topadi. Obishir 1-5 makonlarida o'tkazilgan keyingi tadqiqotlarga ko'ra, O'. I. Islomovning bu boradagi qarashlari haqiqatga yaqinroq ekanligi va yodgorliklar bundanda qadimiyroq ekanligi aniqlandi [56.]

Surxondaryo vohasidagi Machay g'ori arxeologik materiallarini O'. I. Islomov mezolit davrining oxirlari bilan sanaladi. Bu borada O'. I. Islomov o'zining ustozidan ham ilgarilab ketdi, Negaki A. P. Okladnikov g'orning quyi qatlamini muste davriga oidligini bir necha marta ta'kidlagan edi [49].

Umuman, O'. I. Islomov talqinlarida yodgorliklarni qadimiylashtirishga bo'lgan intilish tendensiyasini kuzatish mumkin. Ammo bu hamisha ham o'zini oqlamagan. Masalan,

Selungur g'ori na'munalaridan olingan natijalar 1,1 mln - 750 ming yillik xulosalarni bergan. Biroq O'. I. Islomovning keyingi ilmiy ishlarida Selungur uchun 1,5 mln. yillik sanalar ham uchraydi [36].

Quyida Zarafshon vohasi bo'yicha O'. I. Islomov o'zining ustozlari Y. G'. G'ulomov hamda bir qator boshqa yetuk mutaxassislar bilan birgalikda tadqiqotlar olib borgan va bu tadqiqotlar fan olamida to'laligicha qabul qilingan. Olingan natijalar hozirgacha ham hech kimda shubha qoldirmaydi.

O'. I. Islomov ilmiy xulosalari dolzarbligining asosiy xususiyati shundaki, u kishi arxeologik tadqiqotlarni bir kishining ishi emasligini, balki multidissiplinar sohalar mutaxassilarining ijodi mahsuliligini hamda hamisha dunyoning ilg'or maktablari bilan hamkorlikda olingan natijalarning yashovchan bo'lishini yaxshi anglaganligi va bunga qat'iy amal qilganligidadir.

O'. I. Islomov ilmiy merosining O'zbekiston ibtidoiy tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

O'. I. Islomov tomonidan O'zbekiston hududidan tosh davriga oid bir qator mutlaqo yangi madaniyatlar kashf qilindi. Ular qatoriga ilk paleolit davri bo'yicha – Osiyocha ashel madaniyati (Selungur g'ori materiallari asosida), ashel madaniyati (Jarsoy, Toshsoy va Qizilolma 2 yodgorliklari materiallari asosida); o'rta paleolit bo'yicha – levallua-muste madaniyati (Jarsoy-2 materiallari asosida); o'rtadan so'nggi paleolit davriga o'tish industriyalari madaniyati bo'yicha – Obiraxmat, Ko'lbuloq, Qizilolma-2 materiallari asosida; so'nggi paleolit davri bo'yicha – Toshkent so'nggi paleolit madaniyati (Obiraxmat, Ko'lbuloq, Qizilolma-2 hamda To'daxotin-1, 2 makonlari materiallari asosida); mezolit davri bo'yicha – Obishir madaniyati (Obishir-1, 5 va Markaziy Farg'ona mezoliti bo'yicha); Surxondaryo madaniyati (Machay, Ayritom, Sherobod yodgorliklari materiallari asosida); neolit davri bo'yicha – Kaltaminor madaniyatining Tuzkon varianti (Tuzkon topilmajoylari materiallari

asosida) kabilarni kiritish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'. I. Islomov tomonidan Dorbazaqir makonidan Kaltaminor madaniyati uchun noyob hisoblangan mutlaqo yangi uy-joy qoldiqlari ochib o'rganildi va ilmiy muomalaga kiritildi.

O'. I. Islomov O'zbekistonning paleoantropologiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Uning tomonidan Selungur g'ori madaniy qatlamlaridan arxantropolarga tegishli 3 ta individga mansub suyak qoldiqlari aniqlandi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu O'rta Osiyo hududidan topilgan ilk paleolit davriga oid yagona va eng qadimgi gominidlarining qoldiqlaridir.

O'. I. Islomov boshchiligidagi O'zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan 2003-yilda Obiraxmat g'orining 16-madaniy gorizontidan 1-3 va 10 yoshdagi bolalarga tegishli bo'lgan paleoantropologik qoldiqlar topilgan. Bu dunyoda kam uchraydigan o'rtadan so'nggi paleolit davriga o'tish davri industriyalari bilan birgalikda topilgan noyob paleoantropologik topilma bo'ldi. Bundan tashqari, ushbu topilmalarning morfologik tahlillari, bu odamlarning genetik jihatdan neandertallar va zamonaviy odamlar o'rtasidagi qarishuvidan dalolat berardi. Bu topilmalar odam evolyusiyasidagi nazariy qarashlarni o'zgartirib yubordi.

O'. I. Islomov tadqiq qilgan yodgorliklarning madaniy yotqiziqlaridan pleystotsen va ilk golotsen davrlari paleoekologiyasiga oydinlik kirituvchi materiallar ham qo'lg'a kiritildi. Selungur g'ori madaniy qatlamlaridan olingan gul-chang tahlillariga ko'ra, O'rta Osiyo hududida ilk pleystotsen davri paleoekologiyasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar olindi. Hozirda yo'qolib ketgan qator paleoflora va fauna qoldiqlari aniqlandi.

Shunday qilib, hozirda va bundan keyin ham nafaqat O'zbekistonning, balki butun O'rta Osiyoning ibtidoiy tarixi, arxeologiyasi, paleoekologiyasi va yodgorliklarning madaniy-davriy xususiyatlarini O'. I. Islomovning tadqiqotlarisiz hamda uning ilmiy xulosalarisiz

tasavvur qilish mumkin emas.

O‘. I. Islomov rahbarligida T. Omonjo‘lov, T. Y. Grechkina, A. R. Botirov, M. Xo‘janazarov, K. A. Kraxmal, N. O. Xushvaqto‘v, E. Yeldzarova, B. Q. Sayfullaev, R. Xudoyberdiev, S. T. Mirsoatova kabi yosh mutaxassislar faoliyat olib borganlar. M. Xo‘janazarov, B. Sayfullaev, N. Xushvaqto‘v, S. Mirsoatovalarga O‘. I. Islomov bevosita ilmiy rahbarlik qildi.

O‘. I. Islomov rahbarlik qilgan O‘zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi ilmiy-tadqiqot ishlaridan tashqari, ekspeditsiya doirasida 2007-yildan “Talabalar va aspirantlar uchun xalqaro dala maktabi” faoliyat olib boradi. Bu maktabning vazifalari qatoriga yosh mutaxassislarni faol jalb qilish orqali oliy ta’limni fan bilan integratsiyalash, mahalliy

maktablar uchun dunyo standartlariga mos keladigan yuqori malakali yosh avlod kadrlar bilan ta’minlash va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat edi. Yosh kadrlarni nafaqat O‘zbekistonda, balki uning tashqarisida ham laborator va dala tadqiqotlariga jalb qilish ham ko‘zda tutilgan. Ushbu maktab ishida hozirgacha O‘zbekiston, Rossiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Germaniya, Ispaniya, Janubiy Koreya, Belgiya, Fransiya, Eron va Xitoydan yosh talaba va aspirantlar ishtirok etishdi.

O‘. I. Islomovning 60 yildan ziyod ilmiy faoliyati davomida qo‘lga kiritgan natijalari 6 ta monografiya va 200 ga yaqin ilmiy maqolalarda o‘z aksini topdi. Uning ilmiy yutuqlari munosib taqdirlandi va A. Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Анисюткин Н. К., Исламов У. И., Крахмаль К. А., Сайфуллаев Б. К., Хушваков Н. О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). Санкт-Петербург, 1995.
- [2] Археология СССР // Мезолит СССР. М. Изд-во “Наука”, 1989. -
- [3] Анарбаев А. А., Бердимуродов А. Э., Сайфуллаев Б. К. Академик У. И. Исламов – крупный исследователь первобытной истории Узбекистана // ИМКУ, Вып 38. Самарканд, 2012.
- [4] Аскарлов А. Археологическая поездка в северо-западную часть Каршинской степи, в кн. «История материальной культуры Узбекистана», Вып. 5, Ташкент, Изд-во «Наука» УзССР, 1964.
- [5] Батыров Б. Х. Фауна пещеры Ма-чай // Вопросы археологии и морфология животных. Труды СамГУ. Самарканд, Вып. 351. 1978.
- [6] Виноградов А. В. Кельтеминарская культура. Автореферат на соискании ученой степени кандидата исторических наук. М., 1957.
- [7] Виноградов А. В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры, СЭ, № 1.1957.
- [8] Воронец М. Э. Археологические исследования и ремонтно-реставрационные работы в УзССР, СОНАТ, № 10-11. 1937.
- [9] Гланц М., Виола Б., Чикишева Т. Новые останки гоминидов из Узбекистана (грот Обирахмат) // Грот Обирахмат. - Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2004.
- [10] Гулямов Я. Г., Аскарлов А. А., Исламов У. И. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. “Фан”, Т. 1966
- [11] Деревянко А. П., А. И. Кривошапкин, А. А. Анойкин, У. И. Исламов, Петрин В. Т., Сулейманов Р. Х., Сайфуллаев Б. К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Рахмат (по материалам слоев 2-14) // Археология, этнография и антропология Евразии 4 (8). Новосибирск, 2001.
- [12] Деревянко А. П., Колобова К. А., Фляс Д., Исламов У. И., Ков Н., Коуп Д., Звинц Н., Павленок К. К., Мамиров Т. Б., Крахмаль К. А., Мухтаров Г. А. Возобновление археологических работ на многослойной стоянке Кульбулак // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Материалы годовой сессии Института археологии и этногра-

фии СО РАН. – Т.13. – Ч.1. 2007.

[13] Деревянко А. П., Исламов У. И., Петрин В. Т., Сулейманов Р. Х., Алимов К., Крахмаль К. А., Феденева И. Н., Зенин А. Н., Анойкин А. А. Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 1998 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН. 1998.

[14] Деревянко А. П., Кривошапкин А. И., Анойкин А. А., Исламов У. И., Петрин В. Т., Сайфуллаев Б. К., Сулейманов Р. Х. Ранний верхний палеолит Узбекистана: индустрия грота Оби-Рахмат (по материалам слоев 2 – 14) // Археология, этнография и антропология Евразии. №4. Новосибирск, 2001.

[15] Деревянко А. П., Ширинов Т. Ш., Анойкин А. А., Борисов М. А., Гладышев С. А. Исследование грота Тешик-Таш-2 (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы Годовой сессии ИАЭТ СО РАН 2003 г., посвящ. 95-летию со дня рожд. академика А. П. Окладникова. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, – Т. IX, ч. I. 2003.

[16] Исламов У. Кельтеминнарская культура на Махан-Дарье, «Научные работы и сообщения отделения общественных наук АН Уз ССР», кн. 4., Ташкент, Изд-во АН Уз ССР, 1961.

[17] Исламов У. И. Многослойная стоянка кельтеминнарской культуры в низовьях Зарафшана, в сб. «История материальной культуры Узбекистана», Вып. 4, Ташкент. 1963.

[18] Исламов У. И. Мезолитическая стоянка Кушилиш под Ташкентом // ОНУ. № 7. Ташкент, 1970.

[19] Исламов У. И. Мезолитические памятники Ферганской долины // ИМКУ. Вып. 9. Ташкент, 1972а.

[20] Исламов У. Некоторые итоги и перспективы изучения эпохи мезолита в Узбекистане. УСА, Вып. 1. М. 1972б.

[21] Исламов У. И., Тимофеев В. И. Культура каменного века Центральной Ферганы. Ташкент, 1972в.

[22] Исламов У. И. Результаты раскопок пещерных стоянок мезолитического времени в Узбекистане. УСА, Вып. 1, Л. Изд-во «Наука». 1972г.

[23] Исламов У. И., Некоторые итоги и перспективы изучения эпохи мезолита в Узбекистане. ТД сессии, посвященной итогам полевых археологических исследований 1972 г. В СССР, Ташкент, Изд-во «ФАН» УзССР. 1973.

[24] Исламов У. И. К вопросу о локальных вариантах эпохи мезолита и неолита в Узбекистане // ИМКУ. Вып.11. 1974а.

[25] Исламов У. И. Новые материалы по каменному веку Южного Узбекистана // Древняя Бактрия. Л. 1974б.

[26] Исламов У. И. Пещера Мачай. Ташкент, «ФАН», 1975а.

[27] Исламов У. И., Матюхин А. Е. О специфической группе орудий из пещерной стоянки Мачай // СА, Вып 3. 1975б.

[28] Исламов У. И. Мезолит Средней Азии \\\ Автореф. дис... докт. ист. наук. Новосибирск, 1977.

[29] Исламов У. И., Тимофеев В. И. Стоянки каменного века южной части Центральной Ферганы // ИМКУ, №13. 1977.

[30] Исламов У. И. Обиширская культура. Ташкент, «ФАН», 1980.

[31] Исламов У. И. Стоянка Кушилиш // У истоков древней культуры Ташкента. Ташкент, 1982.

[32] Исламов У. И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сельбунгур // ИМКУ. Вып.19. 1984.

[33] Исламов У. И., Тимофеев В. И. Культура каменного века Центральной Ферганы. Ташкент, «ФАН», 1986.

- [7]. Колобова К. А., Флас Д., Деревянко А. П., Павленок К. К., Исламов У. И., Кривошапкин А. И. Кульбулакская мелкопластинчатая традиция в верхнем палеолите Центральной Азии // Археология, этнография и антропология Евразии. 2013. №2 (54). С. 3–25.
- [8]. Колобова К. А., Шнайдер С. В., Кривошапкин А. И. Преемственность развития верхнепалеолитических и мезолитических индустрий в западной части Центральной Азии // Stratum plus. Археология и культурная антропология. 2016. №1. С. 51–63.
- [9]. Лбова Л. В. Палеолит северной зоны Западного Забайкалья. Улан-Удэ: Изд-во БНЦ СО РАН, 2000. – 240 с.
- [10]. Лбова Л. В., Кулик Н. А., Волков П. В., Барков А. В., Ванхаерен М., Марченко Д. В., Ковалев В. С. Технология обработки «экзотических» минеральных ресурсов в позднем палеолите Южной Си-

- бири // *Stratum plus. Археология и культурная антропология*. 2018. №1. С. 199 – 211.
- [11]. Рыбин Е. П., Хаценович А. М., Звинс Н., Гунчинсурэн Б., Пэйн К., Болорбат Ц., Одсурен Д., Галфи Й., Анойкин А. А., Маргад-Эрдэнэ Г., Марченко Д. В., Ангарагдулгуун Г., Шелепаев Р. А., Попов А. Ю. Новые результаты изучения стоянки Толбор-21 (Северная Монголия) // *Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий*. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2017. Т. XXIII. С. 198 – 201.
- [12]. Ташак В. И. Обработка скорлупы яиц страусов в верхнем палеолите Забайкалья // *История и культура востока Азии: мат. междунар. науч. конф.* Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. Т. 2. С. 159 – 164.
- [13]. Федорченко А. Ю., Белоусова Н. Е., Кулик Н. А., Шуньков М. В. Украшения из серпентина ранней стадии верхнего палеолита со стоянки Усть-Каракол (Северо-Западный Алтай) // *Археология, этнография и антропология Евразии*. 2020. №1. С. 3 – 15.
- [14]. Хаценович А. М., Рыбин Е. П., Гунчинсурэн Б., Болорбат Ц., Одсурен Д., Ангарагдулгуун Г., Маргад-Эрдэнэ Г. Человек и *Struthio asiaticus*: страница палеолитического искусства в восточной части Центральной Азии // *Известия Иркутского государственного университета. Серия «Георахеология. Этнология. Антропология»*. 2017. Т. 21. С. 80 – 106.
- [15]. Шуньков М. В., Федорченко А. Ю., Козликин М. Б. Костяные изделия верхнего палеолита из южной галереи Денисовой пещеры (коллекция 2017 года) // *Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий*. Т. XXIII. Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2017. С. 259 – 262.
- [16]. Шуньков М. В., Федорченко А. Ю., Козликин М. Б. Персональные украшения ранней стадии верхнего палеолита из Южной галереи Денисовой пещеры // *Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных тер-*
- риторий*. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2018. Т. XXIV. С. 198 – 204.
- [17]. Шуньков М. В., Федорченко А. Ю., Козликин М. Б. Костяные орудия и персональные украшения начала верхнего палеолита из южной галереи Денисовой пещеры (коллекция 2019 года) // *Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий*. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2018. Т. XXV. С. 306 – 312.
- [18]. Шуньков М. В., Федорченко А. Ю., Козликин М. Б. Верхнепалеолитические украшения из южной галереи Денисовой пещеры: коллекция 2021 года // *Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий*. Т. XXVII. Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2021. С. 362–368.
- [19]. Barton C. M., Clark G. A., Cohen A. E. Art as Information: Explaining Upper Palaeolithic Art in Western Europe // *World Archaeology*. 1994. Vol. 26 (2). P. 185 – 207.
- [20]. Cărciumaru M., Nițu E.-C., Cîrstina O. A geode painted with ochre by the Neanderthal man // *Comptes Rendus Palevol*. 2015. Vol. 14 (1). P. 31- 41.
- [21]. d'Errico F. The Invisible Frontier. A Multiple Species Model for the Origin of Behavioral Modernity // *Evolutionary Anthropology*. 2003. Vol. 12. P. 188 – 202.
- [22]. d'Errico F., Henshilwood C., Lawson G., Vanhaeren M., Tillier A.-M., Soressi M., Bresson F., Maureille B., Nowell A., Lakarra J., Backwell L., Julien M. Archaeological Evidence for the Emergence of Language, Symbolism, and Music – An Alternative Multidisciplinary Perspective // *Journal of World Prehistory*. 2003. Vol. 17 (1). P. 1–70.
- [23]. d'Errico F., Vanhaeren M., Henshilwood C., Lawson G., Maureille B., Gambier D., Tillier A. Soressi M., van Niekerk K. From the origin of language to the diversification of languages: What can archaeology and palaeoanthropology say? // *Becoming Eloquent: Advances in the emergence of language, human cognition, and modern cultures* / d'Errico F., Hombert

- J.-M. (Eds.). Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2009. P. 13 – 68.
- [24]. Douka K., Slon V., Jacobs Z., et al. Age estimates for hominin fossils and the onset of the Upper Palaeolithic at Denisova Cave // *Nature*. 2019. Vol. 565. P. 640 – 644.
- [25]. Henshilwood C. S., Marean C. W. The Origin of Modern Human Behavior: Critique of the Models and Their Test Implications // *Current Anthropology*. 2003. Vol. 44 (5). P. 627 – 651.
- [26]. Hoffecker J. F. Innovation and Technological Knowledge in the Upper Palaeolithic of Northern Eurasia // *Evolutionary Anthropology*. 2005. Vol. 14. P. 186 – 198.
- [27]. Hoffmann D. L., Angelucci D. E., Villaverde V., Zapata J., Zilhão J. Symbolic use of marine shells and mineral pigments by Iberian Neandertals 115,000 years ago // *Science Advances*. 2018. Vol. 4 (2). eaar5255.
- [28]. Krause J., Fu Q., Good J. M., Viola B., Shunkov M. V., Derevianko A. P., Pääbo S. The complete mitochondrial DNA genome of an unknown hominin from southern Siberia // *Nature*. 2010. Vol. 464. P. 894 – 897.
- [29]. Krivoshepkin A., Shalagina A., Baumann M., Shnaider S., Kolobova K. Between Denisovans and Neanderthals: Strashnaya Cave in the Altai Mountains // *Antiquity*. 2018. Vol. 92 (365). e1.
- [30]. Kuhn S. L., Stiner M. C. Body ornamentation as information technology: Towards an Understanding of the Significance of Early Beads // *Body ornamentation as information technology: Towards an Understanding of the Significance of Early Beads. Rethinking the Human revolution / Mellars P., Boyle K., Bar-Yosef O., Stringer C. (Eds.). Cambridge: McDonald Institute for Archaeological Research, 2007. P. 45 – 54.*
- [31]. Li Z., Doyon L., Li H., Wang Q., Zhang Z., Zhao Q., d’Errico F. Engraved bones from the archaic hominin site of Lingjing, Henan Province // *Antiquity*. 2019. Vol. 93 (370). P. 886 – 900.
- [32]. Majkić A., d’Errico F., Stepanchuk V. Assessing the significance of Palaeolithic engraved cortexes. A case study from the Mousterian site of Kiik-Koba, Crimea // *PLOS One*. 2018. Vol. 13 (5). e0195049.
- [33]. Majkić A., Evans S., Stepanchuk V., Tsvelykh A., d’Errico F. A decorated raven bone from the Zaskalnaya VI (Kolosovskaya) Neanderthal site, Crimea // *PLoS ONE*. 2017. Vol. 12 (3). e0173435.
- [34]. Martí A. P., Wei Y., Gao X., Chen F., d’Errico F. The earliest evidence of coloured ornaments in China: The ochred ostrich eggshell beads from Shuidonggou Locality 2 // *Journal of Anthropological Archaeology*. 2017. Vol. 48. P. 102 – 113.
- [35]. Mellars P. The Impossible Coincidence. A Single-Species Model for the Origins of Modern Human Behavior in Europe // *Evolutionary Anthropology*. 2005. Vol. 14. P. 12 – 27.
- [36]. Mithen S. J. *The prehistory of the mind: a search for the origins of art, religion, and science*. London: Thames & Hudson, 1996. – 288 p.
- [37]. Radovčić D., Sršen A. O., Radovčić L., Frayer D. W. Evidence for Neandertal jewelry: Modified white-tailed eagle claws at Krapina // *PLoS ONE*. 2015. Vol. 10 (3). e0119802.
- [38]. Romandini M., Peresani M., Laroulandie V., Metz L., Pastoors A., Vaquero M., Slimak L. Convergent Evidence of Eagle Talons Used by Late Neanderthals in Europe: A Further Assessment on Symbolism // *PLoS ONE*. 2014. Vol. 9 (7). e010278.
- [39]. Shunkov M. V., Anoin A. A., Pavlenok G. D., Kharevich V. M., Shalagina A. V., Zotkina L. V., Taimagambetov Z. K. Nouveau site Paleolithique superieur ancien au nord de l’Asie Centrale // *L’anthropologie*. 2019. Vol. 123. P. 438 – 451.
- [40]. Shunkov M. V., Fedorchenko A. Yu., Kozlikin M. B., Derevianko A. P. Initial Upper Palaeolithic Ornaments and Formal Bone Tools from the East Chamber of Denisova Cave in the Russian Altai // *Quaternary International*. 2020. Vol. 559. P. 47 – 67.
- [41]. Vanhaeren M., d’Errico F.

Aurignacian ethno-linguistic geography of Europe revealed by personal ornaments // Journal of Archaeological Science. 2006. Vol. 33. P. 1105 – 1128.

[42]. Wei Y., d'Errico F., Vanhaeren M., Li F., Gao X. An Early Instance of Upper Palaeolithic Personal Ornamentation from China: The Freshwater Shell Bead from Shuidonggou 2 // PLoS ONE. 2016. Vol. 11 (5). e0155847.

[43]. Wei Y., d'Errico F., Vanhaeren M., Peng F., Chen F., Gao X. A technological and morphological study of Late Palaeolithic ostrich eggshell beads from Shuidonggou, North China // Journal of Archaeological Science. 2017. Vol. 85. P. 83 – 104.

[44]. Zhang X. L., Ha B. B., Wang

S. J., Chen Z. J., Ge J. Y., Long H., He W., Da W., Nian X. M., Yi M. J., Zhou X. Y., Zhang P. Q., Jin Y. S., Bar-Yosef O., Olsen J. W., Gao X. The earliest human occupation of the high-altitude Tibetan Plateau 40 thousand to 30 thousand years ago // Science. 2018. Vol. 362 (6418). P. 1049 – 1051.

[45]. Zwyns N., Gladyshev S. A., Gunchinsuren B., Bolorbat T., Flas D., Dogandžić T., Tabarev A. V., Gillam C., Khatsenovich A. M., McPherron S., Odsuren D., Paine C. H., Purevjal K., Stewart J. R. The open-air site of Tolbor 16 (Northern Mongolia): Preliminary results and perspectives // Quaternary International. 2014. Vol. 347. P. 53 – 65.

Сведения об авторе:

Федорченко Александр Юрьевич, младший научный сотрудник Института археологии и этнографии СО РАН, Новосибирск, Россия, winteralex2008@gmail.com.

** Работа выполнена в рамках проекта РНФ № 20-78-10125 «Динамика культурного развития и освоение человеком Алтая в начале верхнего палеолита: стратегии жизнеобеспечения, палеотехнологии, мобильность».

MARKAZIY OSIYO MINTAQASINING ENG QADIMGI TAQINCHOQLARI: TADQIQOT MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Izoh. Markaziy Osiyoda ma'lum bo'lgan shaxsiy taqinchoqlar ramziy faoliyat predmetlari orasida nisbatan ifodalisi hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar eng qadimgi buyumlarni yasash va ulardan foydalanishning asosiy xususiyatlarini qayd etish imkoniyatini beradi. Zargarlik buyumlarining o'zgaruvchanligi mintaqada dastlab yuqori paleolit jamoalari madaniyatida bezak xomashyosini qayta ishlash sohasidagi chuqur bilimlarning mavjudligini guruh ichida va guruhlara muloqotda bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi.

Tayanch so'zlar: zargarlik buyumlari, paleolit, O'rta Osiyo, Oltoy tog'lari, aloqa.

THE EARLIEST PERSONAL ORNAMENTS OF THE CENTRAL ASIAN REGION: PROBLEMS AND PROSPECTS FOR RESEARCH

Abstract. Personal ornaments are the most expressive of the symbolic items known in Central Asia. Our analysis identifies the main features in the production and use of the most ancient adornments. The ornaments' variability reflects the existence in the culture of the first Upper Palaeolithic communities of deep knowledge in the processing of raw materials and the undoubted need for intragroup and intergroup communication.

Key words: jewelry, Paleolithic, Central Asia, Altai Mountains, communication.

Anvarbek Omonov

ILK GOMINIDLAR MIGRATSIYASI XUSUSIDA

Izoh. Ushbu maqolada insoniyat tarixining ilk bosqichi (Olduvay va Ashel) davrida sodir bo'lgan dastlabki migratsiyalar to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada ilk gominidlar moddiy madaniyati va ular bilan bog'liq migratsiyalar hamda uchlamchi (pliotzen) davrdan to'rtlamchi (pleystotsen) davrga o'tishda Afrika qit'asidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy sharoit to'g'risidagi eng yangi ilmiy ma'lumotlar qisqacha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Avstrolopitek, homo xabilis, homo erektus, to'rtlamchi davr, paleoantropologiya, migratsiya, Olduvay, Ashel, Lokalaley 1,2, Lomekvi 3, Dmanissi, Soan, Aynikab, Ko'ldara, Chashma, chopper, bifas, unifas.

Uzoq o'tmishni o'rganish va unga bo'lgan qiziqishning ortishi natijasida arxeologiya, paleoantropologiya, paleogenetika, arxeogenetika sohalarida yangidan-yangi izlanishlar, zamonaviy metodlar asosida tadqiqotlar rivojlanib, dunyoning turli mintaqalaridagi paleolit davri yodgorliklarida kompleks (arxeologik, paleoantropologik va x.k.) tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida qator topilmalar xususan, qadimgi odam suyagi qoldiqlarining topilishi - yer yuzida odamzotning paydo bo'lishi (antropogenez) borasidagi ma'lumotlarni yanada boyitmoqda. Afrika, Yaqin Sharq, Saudiya Arabistoni, Kavkaz, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalardan topilayotgan paleoantropologik topilmalar tahlili bunga asos bo'ladi.

Yer yuzida inson yaralgandan beri necha marotaba (o'nlab, hatto yuzlab) katta va kichik migratsiyalar sodir bo'lgan (bir hudud yoki mintaqadan boshqa bir hududga ko'chish). Migratsiya har bir tarixiy davrga xos xususiyatdir. Masalan, eng dastlabki migratsiyalar - Homo habilis va Homo erectus kabi ilk ajdodlarimiz bilan bog'liq bo'lsa, ilk va o'rta paleolit davrida esa navbatdagi ko'chishlar - neandertal (Homo neanderthalensis) va zamonaviy qiyofadagi odamlar (Homo sapiens) tomonidan amalga oshirilgan. So'nggi paleolit, mezolit, neolit, eneolit va boshqa davrlarda ham bu jarayon (migratsiya) davom etgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab,

hozirga qadar dunyoning turli mintaqalarida joylashgan paleolit davriga oid yodgorliklardan topilayotgan paleoantropologik materiallar tahlili gominidlar tadrijiy rivojlanishini ilmiy jixatdan o'rganishda muxim ahamiyat kasb etmoqda. Arxeologik adabiyotlardan ma'lumki, gominidlarning dastlabki vakillari Afrika qit'asining Janubiy va Shimoli-Sharqiy hududlaridan topilgan bo'lib, bularga, Avstralopitek (Australopithecus), Keniantrop (Kenyanthropus), Homo xabilis (Homo habilis), Homo ergaster va Homo erektuslarni (Homo ergaster/erectus) misol keltirish mumkin [3; 4; 6; 9; 18].

So'nggi yarim asrda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, inson dastlab Afrikada paydo bo'lgan, so'ngra Yevroosiyoga ko'chib, mazkur qit'ani o'zlashtirgan. Shu sababli ham ilmiy jamoatchilik tomonidan odamzotning ilk vatani - Afrika qit'asi deb qaralmoqda. Qit'aning Janubiy, asosan Shimoli-Sharqiy mintaqalaridan ilk gominidlarning suyak qoldiqlari bilan birga ular tomonidan toshdan yasalgan eng sodda va qo'pol tosh qurollar topilgan, bularga: Tanzaniyaning Zinj vodiysi Olduvay darasidan, Efiopiyaning Afara deb nomlangan topilmajoyidan, Koobi-Foradan, hamda Keniyaning shimoliy qismida joylashgan Turkana ko'lining g'arbiy soxilidan topilgan bir qator - Lokalaley 1, 2 S, Lomekvi 3, Omo va boshqa makon-manzilgohlarni misol

qilamiz [5; 11; 18].

Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, mazkur ibtidoiy makon-manzilgohlarning qadimgi gominidlar tomonidan o'zlashtirilishi bundan uch-turt million yillar avval sodir bo'lgan. Masalan, ilk gominid - avstrolopiteklarning (lotincha so'zdan olingan "Janub maymuni" degani) suyak qoldiqlari dastlab 1924-yilda Janubiy Afrikadan, so'ngra Sharqiy va Markaziy Afrika hududlaridan (Kenya, Efiopiya va Tanzaniya) topib, o'rganilgan. Qariyb bir asr davomida olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijasida avstrolopiteklarning bir necha turlari aniqlangan: Australopithecus afarensis, Australopithecus africanus, Australopithecus anamensis, Australopithecus robustus, Australopithecus sediba, Australopithecus garhi. Avstrolopiteklar anatomik va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farq qilgan. [12; 13; 14]. Umuman olganda, mazkur gominidlar ikkita katta guruhga bo'lingan bo'lib, birinchi guruh baquvvat (Australopithecus robustus) hamda ikkinchi guruh zaif (Australopithecus garhi) turlarga ajratilgan. Mutaxassislar o'rtasida aynan zaif avstrolopiteklarni evolyutsiya zanjiridagi navbatdagi turi - homo xabilislarga (Homo habilis) o'sib o'tgan, degan qarashlar mavjud [1; 126].

Avstrolopiteklar bundan 6-7 million yil oldin Afrikada paydo bo'lib (Chad topilmalari), 1,2 mln.yilgacha hayot kechirishgan, ular homo xabilis va homo erektus kabi ilk ajdodimiz bilan bir qit'aning turli hududlarida yonma-yon yashab kelishgan. Avstrolopiteklarning moddiy madaniyati xususida hozircha aniq bir fikr bildirishimiz mushkul, chunki paleoantropologik materiallar (avstrolopiteklarning suyak qoldiqlari) topilgan manzilgohlarda tosh buyumlar (artefaktlar) aniqlanmagan. Fikrimizcha, navbatdagi tadqiqotlar bu masalaga oydinlik kiritadi.

2011-yil AQSHlik tadqiqotchilar tomonidan Turkana ko'lining g'arbiy sohilida joylashgan Lomekvi 3 topilmajoyidan plitsen davriga tegishli toshdan yasalgan o'nlab mehnat qurollar topib o'rganildi, hamda paleomagnet

usuli yordamida ushbu materiallarning davri 3,3 mln. yillar bilan sanalandi [11, S. 310-315]. Lomekvi 3 tosh buyumlari Olduvay madaniyatidan ham qadimiyroq, hajmining kattaligi va ishlanish texnikasida farqlar borligi aniqlangan. Biroq ushbu materiallar ilk gominidlarning qay biriga tegishli bo'lganligi borasida xozircha aniq bir xulosaga kelinmagan. Ehtimol, ushbu tosh buyumlar gominidlarning bir turi - keniyantropga tegishli bo'lishi mumkin. Bunday fikrga kelishimizga sabab, 1999-yil tadqiqotchi Miv Liki tomonidan Keniyada Turkana ko'li atrofidan plitsen davrida yashagan keniyantrop suyak qoldiqlari topilgan [18]. Biroq ushbu keltirib o'tilgan fikrlarimiz ham nisbiy, xozircha ilmiy asosga ega emas. Chunki tosh buyumlar va paleoantropologik materiallar Turkana ko'lining turli joylaridan topilgan, shu sababli topilmalar bir-biriga aloqador bo'lmasligi mumkin.

Bugungi kunda mutaxassislar keniyantropni avstrolopiteklarning bir bo'g'ini deb qarasa, ayrim tadqiqotchilar tomonidan keniyantrop avstrolopiteklarga aloqador bo'lmagan gominidlarning yangi bir turi sifatida talqin qilinadi.

Avstrolopitek suyak qoldiqlarining qit'aning turli hududlaridan topilishi ularning bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chib o'tganligidan dalolat beradi, biroq gominidlarning mazkur vakili Afrikani tark etmagan. Avstrolopiteklar ehtimol ilk gominidlar, ammo ular anatomik va genetik jihatdan qadimgi odamning jismoniy tipini belgilamaydi.

Juda katta davrni qamrab olgan - antropogenez borasida turli fan sohalarining nisbiy yondashuvlari ham mavjud masalan, ilk ajdodlarimizning yer kurrasida paydo bo'lishi geologik davr plitsenning oxiri (uchlamchi davr) hamda pleystotsen (to'rtlamchi) davrining boshlanishiga to'g'ri keladi. Arxeologik tadqiqot natijalariga asoslansak, bu jarayon bundan 2,6 mln. yillar avval sodir bo'lib, Homo habilislar yashagan davrga to'g'ri keladi. Materiallar tahlili va soha mutaxassislarining

fikriga qaraganda bundan qariyb uch million yil oldin yashagan, ilk ajdodimiz hisoblangan – Homo habilis dastlab qayroqtoshdan eng sodda va qupol shakldagi mexnat qurollarni (chopper va chopping) yasashni bilgan. Qayroqtoshdan (galka) ishlangan eng sodda va qo‘pol tosh qurollar – chopper va choppinglar Afrikaning Janubiy va Sharqiy mintaqalaridan topilgan bo‘lib, bundan 2,6 mln. yil avvvval yashagan eng qadimgi odam - Homo xabilislar moddiy madaniyatiga tegishli ekanligi aniqlandi [10; 13; 15; 7]. Chunki, galkali qurollar insoniyatning toshdan yasalgan dastlabki mehnat quroli bo‘lib, ilk ajdodimiz undan xo‘jalikda va turmush-tarzida foydalangan.

1960-yilda Sharqiy Afrikadan Tanzaniyaning shimolida joylashgan Olduvay darasidan antropolog Luis Liki tomonidan, qayroqtoshdan daslabki tosh qurolni yasagan odam Olduvay madaniyati asoschisi - Homo habilis (lot .so‘zdan olingan – bilag‘on odam ma‘nosini anglatadi) suyak qoldiqlari topilgan. Homo xabilislar 2,6-1,5 mln. yillar oralig‘ida qit‘aning Shimoli-Sharqiy hududlarini o‘zlashtirib, bundan 2 mln. yil muqaddam Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyaning birinchi to‘lqinini boshlab bergan ilk ajdodimiz hisoblanadi. Homo xabilislarning izlari Kavkaz mintaqasidan (Dmanisi, Aynikab), Pokiston va Hindistonda keng tarqalgan Soan madaniyati nomi bilan mashhur topilmajoylardan, O‘rta Osiyodan (Ko‘ldara, Chashma, Tanirqozg‘on), hamda Oltoy o‘lkasidagi Karama, G‘arbiy Yevropadagi Voloney (Fransiya) va boshqa yodgorliklardan topilgan [1]. Oradan juda katta davr o‘tsada, homo xabilislar o‘zlarining qayroqtoshli madaniyat an‘analarini saqlab qolganlar va yuz ming yillar davomida ushbu an‘anani (chopper va choppinglar yasashni) Yevroosiyoning deyarli barcha mintaqalariga yoyishgan.

Ilk ajdodlarimizdan yana biri Homo erectus (lot.so‘zdan olingan bo‘lib, tik yuruvchi, baquvvat odam degani). Homo erectuslarning vatani Sharqiy Afrika bo‘lib (ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Janubiy

Afrika), ularning shakllanishi bundan 2 mln. yillar muqaddam sodir bo‘lgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, homo erektuslar bundan 1,5 million yillar muqaddam Afrikani tark etib, dastlab Yaqin Sharq va Arabistonga so‘ngra ushbu hududlar orqali butun Yevroosiyoga, sharqda Xitoygacha, g‘arbda esa to G‘arbiy Yevropagacha tarqalishgan. Homo erektuslar ashel madaniyati sohiblari bo‘lib, ular Yevroosiyoga migratsiyaning ikkinchi to‘lqinini boshlab bergan ilk ajdodlarimizdan biri hisoblanadi.

Bundan 1,75 mln. yil ilgari Shimoliy Afrikada ilk paleolit davrining ashel madaniyati shakllanib, dastlabki bifas qurollar paydo bo‘ldi [1]. Bifas texnikasini o‘zlashtirgan qadimgi jamoalar tomonidan ashel madaniyatiga asos solindi. Mazkur jamoalar ashel madaniyatining (Olduvaydan keyingi) birinchi migratsion oqimi vakillari bo‘lib, ushbu madaniyat sohiblarining jismoniy tipi yuqorida qayd etganimizdek – homo erektuslar edi.

Homa erektuslar ilk ajdodimiz hisoblangan - Homo habilislardan nafaqat ancha takomillashgan jismoniy tipi, balki bifas, unifas yoki trifas deb nomlanadigan murakkab tosh qurollar, tosh boltalar, tosh randalar yasaganliklari bilan ham farq qilgan.

So‘nggi yillardagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gominidlarning homo erektus jismoniy tipi zamonaviy antropologik va genetik tipdagi (homo sapiens) odamlarning rivojlanishida muxim rol uynagan. Yevroosiyoda hududida pleystotsen davrida landshaftning turlicha bo‘lishiga qaramasdan homo erektuslar atrof-muhit sharoitlaridan kelib chiqib moslashuv strategiyasini o‘zgartira oladigan bilim qobiliyatiga ega bulishlari ularga tobora kuproq yangi hududlarni o‘zlashtirish imkonini bergan. Homo erektuslar suyak qoldiqlarining fanda eng mashhurlariga Xitoyda Sinantrop, Yava orolida Pitkantrop topilmalari, Ispaniyadagi Atapuerka, Fransiyadagi Tutavel odami qoldiqlari, Ozarbayjondagi Azix g‘ori topilmalari, Gresiyadagi Petralona topilmalarini

misol keltirish mumkin. [15; 16; 17; 19].

Migratsiyaning ikkinchi to'liqini juda uzoq vaqt (bundan 1,5 mln. yildan – 400-300 ming yillargacha) ya'ni, ilk paleolit davrining ikkinchi yarmigacha davom etgan. Uning nihoyasiga yetishi Afrikada arxaik homo sapienslarning paydo bo'lishi davriga to'g'ri keladi. Umumiy hisobda migratsiyaning uchinchi to'liqini, levallua konseptual tosh sindirish texnikasini ixtiro qilgan (ehtimol arxaik homo sapienslar) ashel madaniyati jamoalarining esa ikkinchi migratsion to'liqini bilan bog'liq bo'lgan [8].

Pliotsenning oxiri va pleystotsen davrining boshlarida Afrikaning paleoiqlimi

Olimlar tomonidan olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijasiga ko'ra geologik davr – pliotsen davrining oxiri va to'rtlamchi davr (pleystotsen)ning boshlanishiga qadar yer sharining katta qismida iqlim o'zgargan (sovuq iqlim hukm surgan). Iqlimning o'zgarishi mintaqalarda turlicha kechgan biroq, aynan o'sha davrda iqlim hozirgi davrga yaqinroq bo'lgan (vaqti-vaqti bilan sovuq hamda issiq iqlim ham shu tarzda shakllana boshlagan). Issiq va sovuq iqlimning birinma-ketin, vaqti-vaqti bilan kirib kelishi natijasida Afrikaning Shimoli-Sharqiy hududlarida o'rmonlar sekin-asta kamaygan va mintaqaning ba'zi joylarida (landshaft) xozirgidek savannalar vujudga kela boshlagan. Tabiiyki, iqlimning o'zgarishi pliotsen davri iqlimiga moslashgan hayvonot (paleofauna) va o'simlik (paleoflora) dunyosiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ba'zi yirik hayvonlar boshqa hududlarga ko'chgan yoki iqlimga moslasha olmasdan qirilib ketishgan. O'simlik dunyosi ham shu zaylda o'zgargan, ya'ni pleystotsen davri iqlimiga xos o'simliklar turi paydo bo'la boshlagan.

To'rtlamchi davr (pleystotsen) boshlangunga qadar pliotsen davri hayvonot va o'simlik dunyosining o'zgarishi qit'ada yashagan gominidlarning turmush-tarzigacha tabiiyki, o'z ta'sirini ko'rsatgan [5]. Gominidlarning ilk vakillari hisoblangan avstrolopiteklar ham oraliq davrdagi iqlim o'zgarishi (pliotsendan

pleystotsen davriga o'tish nazarda tutilmoqda) natijasida iqlimi va tabiiy sharoiti qulay, hayvonot va o'simlik dunyosi serob bo'lgan hududlarga ko'chishgan. Biroq gominidlarning mazkur vakili yuqorida qayd etganimizdek, Afrika qit'asini tark etishmagan.

Bundan 2,6-2,5 mln. yillar avval (to'rtlamchi davrning boshlanishi) odamzodning "ilk vatani"da ekologik muhit o'zgarib, qit'aning aksar hududlarida quruq iqlim hukm sura boshlagan. Iqlimning o'zgarishi natijasida Afrika qit'asining bir qancha mintaqalarida o'rmonlar kamaygan, shimoli-sharqiy mintaqalarda katta maydonni egallagan savannalar vujudga kelgan. Yuqorida nomi keltirib o'tilgan gominidlarning ilk vakillari ham qit'aning barcha hududlariga tarqalib, o'sha hududlarni o'zlashtirishgan, to'rtlamchi davrning iqlimiga moslashishgan, ularning ba'zilari esa biologik va boshqa sabablarga ko'ra halok bo'lishgan. Pleystotsen davri tabiiy sharoitiga moslashgan homo habilis va homo erektuslar esa avstrolopiteklardan farq qilishgan, ular toshdan mehnat qurolini yasashni bilgan, unga ishlov berishgan (birlamchi, keyinchalik ikkilamchi ishlov berish) natijada xo'jalik (terib-termachilik, ov) jarayonida undan foydalanishgan. Homo habilis va homo erektuslarda ekologik sharoitlarga moslashish qulay kechgan. Biroq yuqorida qayd etganimizdek, pliotsendan pleystotsen davriga o'tishda Afrika qit'asidagi iqlim, tabiiy sharoit, ekologik muhitning sezilarli darajada o'zgarishi natijasida hayvonot va o'simlik dunyosi keskin kamaygan, bu jarayon esa ilk ajdodlarimizning Yevroosiyo qit'asiga migratsiya qilishiga asosiy sabablardan biri bo'lgan.

Ilk migratsiya yo'nalishlari xususida

Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, ilk migratsiyalar sodir bo'lishida Yaqin Sharq mintaqasi muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu mintaqamigratsiyalar chorrahasi hisoblanib, uch qit'ani Afrika, Osiyo va Yevropani birlashtirib turadi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ilk ajdodlarimiz tomonidan dastavval Yaqin Sharq va Arabiston hududlari, so'ngra

tabiiy sharoiti, iqlimi mu'tadil, hayvonot va o'simlik dunyosiga boy bo'lgan Kavkaz mintaqasi (Gruziya, Dmanisi topilmalari 1,8 mln. yillar bilan sanalangan) o'zlashtirilgan [2]. Ilk migratsiya yo'nalishlari xususida ham bir nechta nisbiy bo'lgan nazariyalar mavjud bo'lib, ularning birida Shimoli-Sharqiy Afrikadan Yaqin Sharq va Saudiya Arabistoniga qadam quygan ilk ajdodimiz (homo xabilislar) tomonidan Osiyoning Janubi-Sharqiy mintaqalarini (Fors ko'rfazi, Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, O'rta Osiyo va boshqa hududlar) o'zlashtirilgan [5]. Ikkinchi nazariyaga ko'ra ilk ajdodimiz Yaqin Sharq mintaqasidan Kavkaz hududiga, so'ngra Kaspiybo'yi orqali Markaziy Qozog'iston va Oltoy o'lkasi va boshqa shimoliy mintaqalarga kirib kelgan. Navbatdagi migratsiyalar esa (ikkinchi to'lqin nazarda tutilmoqda) biroz keyinroq amalga oshgan.

Ilk migratsiyalarga doir konsepsiyalar

Hozirgi kunda ilmiy jamoatchilik tomonidan dastlabki migratsiyalar xususida bildirilayotgan fikrlar va nazariyalar ham nisbiydir. Mavjud nazariyalar arxeologik va paleoantropologik topilmalar tahliliga asoslansada, ilk migratsiyalar xususida hanuzgacha bir xulosaga kelinmagan, bu borada turli konsepsiyalar mavjud. Eng qadimgi odamning qaysi jismoniy tipi ilk bora Afrikadan Yevroosiyoga ko'chib o'tganligi xususida ham mahalliy va xorijlik tadqiqotchilarning fikrlari turlicha.

Afrikadan Yevroosiyoga birinchi migratsiya bundan 2-1,8 mln. yillar avval sodir bo'lib, xorijlik mutaxassislardan A.P. Derevyankoning fikricha, gominidlarning bu turi homo erektus yoki homo ergaster bo'lgan [4; 5].

Ammo ta'kidlash joizki, homo ergasterlarning paleoantropologik qoldiqlari hali Yevroosiyodan topilgan emas. Bu tipdagi odamlar qoldiqlari faqat Afrika qit'asi bilan cheklanadi. Dmanisi odami dastlab topilgan paytda homo ergaster deb talqin qilingan edi. Biroq ko'p o'tmay Dmanisi odamlari - homo habilislar ekanligi aniqlandi. Afrikadan topilgan

homo ergasterlarning tosh qurollari homo habilislarnikiga o'xshash bo'lgan. Shuning uchun aytish mumkinki, Yevroosiyoda qit'asi dastlabki mehnat qurollarini ishlab chiqargan - homo habilislar tomonidan o'zlashtirilgan. Dmanisidan tashqari, Yevroosiyodan topilgan qayroqtoshli (galkali) industriyalarning barchasi homo xabilislarining madaniyati qoldiqlari deb qaralishi maqsadga muvoffiq bo'lardi.

A. P. Derevyanko ilk migratsiyalar xususida yozgan 3-tomli monografiyasida Afrika qit'asida shakllangan qayroqtoshli madaniyatni Yevroosiyoda keng tarqalishini qayroqtosh-uchirindili madaniyat termini bilan o'zgartiradi. Shuningdek, A. P. Derevyanko taklif etgan qayroqtosh-uchirindili tosh industriya faqat Yevroosiyoga xosligi va bu madaniyat Afrikadan homo erektuslar orqali kirib kelganligi xususida to'xtalib o'tgan [4; 5].

Xullas, A. P. Derevyankoning fikricha homo habilislar Afrika qit'asini tark etmagan, gominidlarning homo erektus yoki homo ergaster tipi ilk bora Yevroosiyoda qit'asiga qadam quygan va ushbu jarayon migratsiyaning birinchi to'lqini bilan bog'liq deb hisoblaydi. Biroq tadqiqot natijalariga ko'ra, qayroqtoshli madaniyat sohiblari (homo habilislar) toshlarni bir yoki ikki yo'nib, chopper va choppinglarni yasashni bilishgan va o'zlari bilan ushbu an'anani Yaqin Sharq va Arabiston orqali butun Yevroosiyoda hududlariga keng yoyishgan. Xorijlik mutaxassislarning aksari ham aynan shu fikrda.

Shuningdek, o'zining konsepsiyasida A. P. Derevyanko paleoantrogenezning ikki xil talqini: monotsetrizm va politsentrizm masalalariga to'xtalib o'tadi. Ta'kidlash joizki, keyingi tadqiqotlarida A. P. Derevyanko politsentristik g'oyalarni qo'llab chiqmoqda. Ammo bu faqat zamonaviy tipdagi odamlarning, ya'ni homo sapienslarning kelib chiqish masalasiga taalluqlidir.

Ilk migratsiyalar xususidagi nazariyalarda mahalliy mutaxassislarning fikrlarini ham qayd etishimiz joiz. Xususan, paleolitshunos olim, B. Q. Sayfullaevning fikriga ko'ra

migratsiyaning birinchi to'liqini - homo habilislar bilan bog'liq bo'lib, ushbu ko'chish bundan ikki million yil ilgari boshlangan. "Bilag'on odamlar" dastlab qayroqtoshli madaniyatni (chopper va choppinglarni yasash) o'zlari bilan Yevroosiyoga olib kirishgan va ularning izlari qit'amizning turli mintaqalaridan Janubi-Sharqiy Osiyo, Kavkazdan, Fransiya, Ispaniya, Gresiya, O'rta Osiyo va Oltoy o'lkasidan topilgan [1].

Mutaxassisning fikricha, migratsiyaning ikkinchi tulqiniga homo erectuslar bilan bog'liq, aynan ular Shimoliy Afrika hududida bundan 1,75 mln. yil avval shakllangan ashel madaniyatini Yevroosiyoga olib kirgan ilk ajdodlarimizdan biridir [1]. Darhaqiqat, galkali qurollarni (chopper va chopping) tayyorlash, undan foydalanish "Bilag'on odam"lar moddiy madaniyatining asosi bo'lsa, bifaslar, unifaslar, tosh boltalar (kliver) va boshqa murakkab tosh qurollarni yasash, ulardan xo'jalikda foydalanish ashel madaniyati jamoalarining (homo erectus) an'anasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, muallif mutaxassis B. Q. Sayfullaevning ilk migratsiya borasidagi fikrlarini qullab-quvvatlaydi. Chunki qadimgi gomindlarning moddiy madaniyatini belgilab beruvchi tosh industriyalarning morfologik va texnik-tipologik tahlili tadqiqotchining mavjud qarashlariga ilmiy asos bo'ladi.

Hozirga qadar ilmiy jamoatchilik orasida qadimgi odamlarning Afrikadan Yaqin Sharq va Arabiston orqali Yevroosiyoga hududlariga dastlabki migratsiyalari xususida turli nazariyalar mavjud bulib, ular bir qator omillar bilan bog'langan:

1. mintaqalarda tabiiy va ekologik sharoitlarning turlicha bo'lishi (landshaft, cho'l va dasht hududlar);
2. iqlimi, tabiiy sharoiti qulay bo'lgan yangi hududlarni o'zlashtirish zaruriyati;
3. mehnat va ov qurollarni yasash uchun homashyo qidirish zaruriyati;
4. iqlimning keskin o'zgarishi (ob-havoning sovishi yoki keskin isishi);

5. ekologik muhitga moslasha olmaslik;

6. hayvonot (fauna) va o'simlik dunyosi (flora) kamyobligi;

7. "demografik" o'sish, ekologik makonlar uchun raqobat va boshqa shu kabi bir qator sabablar qadimgi ajdodlarimizning bir qit'a yoki mintaqadan ikkinchi bir hududga ko'chishiga turtki bo'lgan.

Shunday qilib, maqolada ilk ajdodlarimiz, ular bilan bog'liq migratsiyalarga doir yangi ma'lumotlar keltirilib, qisqacha tahlil etildi. Demak, Afrikadan Yevroosiyoga qit'asiga bo'lgan ilk migratsiyalar bundan ikki million yil ilgari boshlanib, bu jarayon bundan 300 ming yillar muqaddam arxaik homo sapienslarning paydo bo'lishi va tarqalish davriga kelib o'z nihoyasiga yetadi. Katta tarixiy davrlarni o'z ichiga olgan ekologik sharoitlarga qarab (demografik o'zgarishlar va x.k.) ilk ajdodlarimiz ko'chishlarni (migratsiyalar) amalga oshirib, o'simlik va hayvonot dunyosiga serob bo'lgan, tabiiy iqlimi qulay jo'g'rofik hududlarni o'zlashtirishgan. Yuqorida qayd etganimizdek, ilk migratsiya sohiblari qayroqtoshli madaniyat asoschilari homo xabilislar bo'lib, navbatdagi (ikkinchi) migratsion oqim ashel madaniyati jamoalarining (homo erectuslar) Yevroosiyoga tarqalishi va katta tarixiy davrda ushbu hududlarni o'zlashtirilishi jarayoni bilan bog'liqdir.

Ilk paleolit davrining ikkinchi yarmida esa arxaik homo sapienslar Afrikadan Yevroosiyoga uchinchi migratsiya to'liqini boshlab bergan, ashel madaniyati jamoalaridir. Bu davrda (bundan 300-400 ming yil oldin) Shimoliy Afrika hududida ashel madaniyati jamoalari tomonidan levallua konseptual tosh sindirish texnikasi ixtiro qilinadi. Yuqorida qayd etganimizdek, tosh sindirish va unga ishlov berishning yangi usulini ixtiro qilgan ashel madaniyati jamoalari (ehtimol arxaik homo sapienslar) demografik o'zgarishlardan keyin Afrikadan Yaqin Sharq orqali Yevroosiyoga qit'asiga kirib kelib, turli mintaqalarga tarqalishgan. Bu ashel madaniyati sohiblarining

Yevroosiyo qit'asiga ikkinchi migratsion (umumiy hisobda uchinchi) to'liqini edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Анарбаев А. А., Сайфуллаев Б. Қ., Саидов М. М. Сўх қадимда ва ўрта асрларда (археологик материаллар мисолида). Фарғона, 2022. – 72 бет.
- [2]. Габуня Л. К., Векуа А. К., М. А. де Люмлей, Лордкипанидзе Д.О. Новый вид Homo, представленный находкой из низов плейстоценового горизонта Дманиси (Грузия) // Археология, этнография и антропология Евразии. №4. 2002. С. 145-153.
- [3]. Деревянко А. П. Древнейшие миграции человека в раннем палеолите. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2009.- 232 с.
- [4]. Деревянко А. П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том I. Происхождение человека и заселение им Юго-Западной, Южной, Восточной, Юго-Восточной Азии и Кавказа. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2015. - 612 с.
- [5]. Деревянко А. П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том II. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2017. - 884 с.
- [6]. Ламберт Д. Доисторический человек. Кембриджский путеводитель / Пер. с англ. В.З. Махлина. Л.: Недра, 1991. – 256 с.
- [7]. Омонов А. М. Орудия труда, виды и древняя техника обработки камня раннего палеолита // Общество и инновации. Вып. 2. Ташкент, 2021. С. 8-16.
- [8]. Омонов А. М. Леваллуа концептуал чакмоқлаш техникаси ва Ўрта Осиёда ашел маданиятининг иккинчи миграцион оқими ёдгорликлари // “Ўзбекистон археологиясининг долзарб масалалари (проф., М. Д. Джуракуловнинг археология мактаби)” – мавзусида Самарқанд Давлат университетида ўтказилган Республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2022 йил. 253-258 бетлар.
- [9]. Роберт Э. Происхождения человека. Эволюция / Пер. с англ. И.В. Павловой, О.В. Сергеевой. М.: ООО “АСТ” ОГИЗ, 2014. – 256 с.
- [10]. Сайфуллаев Б. Қ., Ҳошимов Ҳ. Б. Тошларни чакмоқлашнинг технологик услублари. Ўзбекистон археологияси. №2, (17). Самарқанд, 2018. 89-113 бетлар.
- [11]. Харманд С., Льюсь Дж.Э., Фейбель К. С., Лепре С. Дж., и др. Каменные орудия возрастом 3,3 миллиона лет из Ломекви 3, Западная Туркана, Кения // Природа. Т. 521. 2015. С. 310-315.
- [12]. Asfaw B., White T. D., Lovejoy C. O., Latimer B., Simpson S, Suva G. Australopithecus garhi: A New Species of Early Hominid from Ethiopia. Science. vol.284. no.5414. 1999. P. 629-635.
- [13]. Armitage S. J., Jasim S. A., Marks A. E., Parker A. G., Usik V. I., Uerpman H. P. The southern route “out of Africa”: Evidence for an early expansion of modern humans into Arabia// Science 331. 2011. P.453–456.
- [14]. Berger L. R., de Ruiter D. J., Churchill S. E., Schmid P., Carlson K. J, Dirks P.H., Kibii J. Australopithecus sediba: a new species of Homo – like australopith from South Africa - Science. Washington: American Association for the Advancement of Science. 2010. Vol. 328. no. 5975. P. 195-204.
- [15]. Carbonell E., Mosquera M., Ollé A., Rodríguez X. P., Sahnouni M., Sala R., Vergès J. M. Structure morphotechnique de l’industrie lithique du Pléistocène inférieur et moyen d’Atapuerca (Burgos, Espagne) // Anthropologie 105. 2001. P. 259 – 280.
- [16]. Falguères C., Bahain J. -J., Pérez-González A., Mercier N., Santonja M., Dolo J.-M. The Lower Acheulian site of Ambrona, Soria (Spain): Ages derived from a combined ESR/U-series model // J. Archaeol. Sci. 33. 2006. P. 149 – 157.
- [17]. Lamotte A., Tuffreau A.

L'Acheuléen dans la vallée de la Somme et Paléolithique moyen dans le nord de la France: données récentes // Centre d'Etudes et Recherches Préhistoriques. Lille. France. 2001. P. 149 – 153.

[18]. Leakey M. G. et al. New hominin genus from Eastern Africa shows diverse middle Pliocene lineages // Nature, Volume

410. 2001. P. 433-440.

[19]. Omonov A. M. Some considerations about paleoecology of Central Asia and migrations of ancient Hominids during the Pleistocene period // International Journal of Social Sciences. Vol. 4. Issue 3. September. 2021. P. 341-345.

Сведения об авторе:

Омонов Анварбек Муродович, младший научный сотрудник Национального центра археологии АН РУз, Ташкент, Узбекистан.

О МИГРАЦИИ РАННИХ ГОМИНИДОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются первые миграции, имевшие место на раннем этапе истории человечества (Олдувай и Ашель). Также кратко проанализирована материальная культура ранних гоминидов и связанная с ней миграция. Освещаются проблемы изменения климата и природных условий на Африканском континенте при переходе от плиоцена к плейстоцену.

Ключевые слова: Австралопитек, хомо хабилис, хомо эректус, плейстоцен, палеоантропология, миграция, Олдувай, Ашель, Локалалей 1,2, Ломекви 3, Дманисси, Соан, Айникаб, Кулдара, Чашма, чоппер, бифас, унифас.

ABOUT MIGRATION OF EARLY HOMINIDS

Abstract. This article discusses the first migrations that took place at an early stage in human history (Olduvai and Ashel). The material culture of early hominids and the migration associated with it are also briefly analyzed. The problems of climate change and natural conditions on the African continent during the transition from the Pliocene to the Pleistocene are highlighted.

Key words: Australopithecus, Homo habilis, Homo erectus, pleistocene, paleoanthropology, Oldowan, Acheul, Dmanisi, Soan, Aynikab, Kul dara, Chashma, chopper, biface, uniface.

G'ayratxon Muxtarov

CHOTQOL TOG' TIZMASI LANDSHAFTLARINING ANTROPOGEN O'ZLASHTIRILISHI

Izoh. Ushbu maqolada Chotqol tog' tizmasi antropogen o'zlashtirilishida qoyatosh rasmlarida aks ettirilgan syujetlarning flora va faunaga aloqadorligi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilishiga arxeologik tadqiqotlarning muhim jarayon ekanligiga ishora qilinadi.

Tayanch so'zlar: Ohangaron daryosi, Chotqol tog' tizmasi, Qoyatosh rasmlari, bronza davri.

Dunyo tamadduni haqida ko'plab muhim ma'lumotlar berishi mumkin bo'lgan tarixiy maskanlardan biri yurtimizdagi Chotqol tog' tizmasi etaklarida joylashgan. Sirdaryoning eng yirik irmoqlaridan biri bo'lgan Ohangaron daryosi havzasi O'rta Osiyoning g'arbiy qismidagi tosh davriga oid madaniy jarayonlarni o'rganish uchun asosiy tayanch hudud hisoblanadi. Aynan shu yerda ko'plab arxeologik yodgorliklar mavjud bo'lib, ular asosida mintaqaviy paleolit rivojlanishining madaniy va xronologik markazi sifatida qaraladi[1].

Chotqol tog' tizmasi geografik o'rni va tabiiy sharoitining qulayligi hududni qadimdan insonlar tomonidan o'zlashtirishiga sabab bo'lgan. Mintaqa qadimgi ovchi va ko'chmanchi chorvador qabilalarning mavsumiy ko'chishlarini yo'naltiruvchi maskanga aylangan. Chotqol tog' tizmasidagi turli tarixiy davrlarga taalluqli moddiy-madaniy yodgorliklar: tosh davri chaqmoqtosh ustaxonalari, ko'hna qishloq xarobalari, eski qo'rg'onlar, qadimgi mozor qoldiqlari[3] yaqqol ko'rsatib turibdi(1-rasm).

Madaniy meros namunasini o'zida mujassam etgan qoyatosh rasmlari qadimgi tarixdan qimmatli ma'lumotlarni beradi. Tog'li o'lkalarda bulutli kunlarning ko'p bo'lishi, qorning uzoq yotishi, yog'in miqdorining ko'pligi, havo haroratining pastroq bo'lishi, tog'-vodiy, yonbag'ir shamollarining esishiga xam ta'sir qiladi. Umuman tog' reliefi, ya'ni tog' tizmalarining mutlaq balandligi,

Quyoshga nisbatan qanday turishi, havo oqimlariga reliefnig ta'siri, tog' oralig'ida vodiy, botiq, platolarning bo'lishi turli xil landshaftlar paydo bo'lishiga shubhasiz ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida tog'larda balandlik mintaqalarining shakllanishiga ta'sir etadi.

O'zbekiston tog'larida yog'in tekislikka nisbatan bir muncha ko'proq yog'adi. Shuningdek yog'ingarchilikning ko'p yog'ishi mintaqadagi faqat flora va faunasigagina emas balki geomorfologiyasiga ham ta'sir qiladi. Chotqol tog' tizmasi yonbag'irlarning 1500-3000 metr balandliklarda yillik yog'in miqdori ayrim joylarda 900 mm dan ham oshadi.

Baland tog'larning subalp va alp o'tloqlari mintaqasiga balandligi 2700-2800 m balandlikdan boshlanib qor chizig'igacha davom etadi. Bu mintaqada och va to'q qo'ng'ir tuproqlarda nam o'tloq va o'tloq dasht o'simliklari keng tarqalgan. Mintaqa 2 qismdan – subalp va alp o'tloqlaridan iborat. Subalp o'tloqlariga balandligi 2700-2800 m dan 3000-3200 m gacha bo'lgan yerlar kiradi. Tuproqlari och jigarrang va qo'ng'ir. Boshhoqlilar va chim hosil qiluvchi o'simliklar keng tarqalgan. O'rik, archa uchraydi. Alp o'tloqlari 3200 m dan baland joylarda rivojlangan. Tuprog'i to'q jigarrang, qo'ng'ir. Kserofit o'simliklar ko'proq uchraydi. Subalp va alp o'tloqlaridan hozirgi kunlarda ham mayda mollar uchun yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

Xududning shimoli-g'arbida uning chegarasi O'zbekiston bilan Qozog'istonning Kalas vodiysi, Qorjantog' va Ugam tizmasi

orqali o'tadigan chegarasiga, shimoli-sharqda va sharqda respublikamizning Qirg'iziston bilan Talas tizmasi, Piskom va Chotqol tizmasi orqali o'tadigan chegarasiga to'g'ri keladi[5;7]. Janubi sharqda Qurama tizmasi xududi Farg'ona vodiysidan ajratib turadi.

Ohangaron vodiysining tog'li qismi, ayniqsa, Chotqol va Qurama tog'i xilma-xil foydali qazilmalarga boy hudud sanaladi[2; 3]. Ushbu xududlarda aniqlangan ma'dan konlarini ilk bor o'zlashtirilishi arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, so'nggi bronza davridan boshlangan. U davrda harbiy qurollar yasash uchun Andronovo madaniyati vakillari metall xomashyosini qidirib, tog' sanoati bilan shug'ullangan.

Qoyatosh rasmlari avvalo san'at obidasi sifatida san'at tarixini o'rganishda, arxeologik va tarixiy manba sifatida ibtidoiy va qadimgi qabilalarning ijtimoiy hayoti va ruhiy olamini o'rganishda katta ahamiyatga ega[4].

Toshkent viloyati Ohangaron tumani tog'lik xududlarida so'ngi yillarda Chotqol tog' tizmasi ko'plab qoyatosh rasmlari aniqlanib o'rganib kelinmoqda[6]. Yangiobod shahridan 10 km shimoliy-sharqda joylashgan Qizil dara manzilida qoyatosh rasmlar tadqiqoti davom ettirilib ko'plab ma'lumotlar jamlandi(2-rasm).

Arxeologik tadqiqot yo'nalishlaridan biri qoyatosh rasmlarni o'rganish bo'lib insoniyatning madaniyat bilan bog'liqligini o'rganadi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi esa o'z-o'zidan avvalo ijtimoiy va iqtisodiy hayotga bog'liq. Qadimdan odamlar yashash sharoitlarini yaxshilash va soddalashtirish maqsadida izlanganlar va bugugi kunga kelib taraqqiyotning rivojlanish darajasini o'z

ko'zimiz bilan ko'rib, baholashimiz mumkin.

Qizil daradan topib aniqlangan rasmlar soni 2 mingga yaqin bo'lib aksariyat qoyatosh rasmlarda tog' echkilari ko'proq uchraydi. Ammo tog'lik hududlarning sharoiti o'ziga xos bo'lib, balandlik ortgani sari inson turmush tarziga o'z taa'sirini ko'rsatadi. Qoyatosh rasmlari mavjud manzillar yaqinida albatta qandaydir arxeologik topilmalarning borligi tadqiqotlar davomida o'z isbotini topib kelmoqda. Insoniyat turmush tarzining ajralmas qismi bo'lgan madaniyat namunalari aynan qoyatosh rasmlarida tez-tez uchrab turadi.

Manzillarni o'rganish jarayonida albatta yordamchi sohalarning tahlillariga ham alohida e'tibor qaratib geologiya, geomorfologiya, neotektonika, gidrogeologiya, biologiya va polebotanika fanlariga bevosita murojat qilishga to'g'ri keladi[8]. Insoniyat tomonidan Chotqol tog' tizmasini antropogen o'zlashtirilishi jarayonida chorvachilik, ovchilik, konchilik kabi sohalarning rivojlanishi natijasida landshaft o'zgarib boradi. Shuningdek qadimgi tabiiy muhitni tasavvur qilish uchun laboratoriya taxlillari muhim ahamiyat kasb etadi.

N. T. Rahimov tadqiqotlarida qoyatoshlarda tasvirlangan echki tasviri unumdorlik yoki suv xudosiga qurbonlik qilish marosimi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi[9]. Bundan ko'rinib turibiki Chotqol tog' tizmasi hududlarida ko'plab uchrab turadigan echki tasviri bevosita shunday an'analarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida albatta har bir topilmalarga e'tibor berilsada, tabiatning jihatlarini ham hisobga olgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Абдуллаев Ш. Х. Морфоструктура Ангренской впадины. Ташкент: Фан, 1985. 117 с.

[2]. Буряков Ю. Ф. Из прошлого Чаткало-Кураминского промышленного района (К истории горного дела и металлургии

средневекового Илака). Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 1966. С. 10-11.

[3]. Буряков Ю. Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. М., 1974. С. 43 – 112.

[4]. Исабеков Б. И. Қовунчи мадани-

яти этник гурухлари Чотқол ва Курама тоғ чўққиларида // ЎЗМУ хабарлари. Тошкент, 2018. № 1/2.

[5]. Кабиров Ж. Сармишсойнинг қоя-тош расмлари. Ташкент, 1976.

[6]. Насанов И. А., Фуломов П. Н., Қаюмов А. А. Ўзбекистон табиий географияси (2 қисм)/ Университетлар ва педагогика институтларининг география, биология-география, тарих-география мутахассисликлари учун қўлланма сифатида тавсия этилади. Тошкент, 2010. 122-бет.

[7]. Хўжаназаров М. Наскальные изо-


бражения Ходжакента и Каракияся, Самарканд, 1995.

[8]. Хўжаназаров М., Кот М., Шимчак К., Павленок К., Павленок Г., Холматов А. Ўзбекистон-Полша-Россия тош даври экспедициясининг 2018-2019 йилларда олиб борган археологик тадқиқотлари хусусида// Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. Самарканд, 2020. № 12. Б. 336 – 345.

[9]. Рахимов Н. Т. Археологические памятники горной Уструшаны. Хужанд: Ношир, 2016. С. 101.

Сведения об авторе:

Мухтаров Гайратхон Арсланович, младший научный сотрудник Национального центра археологии АН РУз, Ташкент, Узбекистан, gayratxon75@mail.ru



1-рasm. Chotqol toғ tizmasi tarixiy obyektlar aniqlangan hududlar.



2-rasm. Qizildara landshafti.

АНТРОПОГЕННОЕ ОСВОЕНИЕ ЛАНДШАФТОВ ЧАТКАЛЬСКОГО ХРЕБТА

Аннотация. В статье отмечается, что в антропогенном освоении Чаткальского хребта важным процессом считаются археологические исследования соотношения флоры и фауны и особенностей сюжетов, изображенных на наскальных рисунках.

Ключевые слова: река Ахангаран, система Чаткальских гор, наскальные рисунки Коятош, период бронзы.

ANTHROPOGENIC DEVELOPMENT OF THE LANDSCAPES OF THE CHATKAL RIDGE

Abstract. The article notes that in the anthropogenic development of the Chatkal Range, archaeological studies of the relationship between flora and fauna and the features of scenes depicted in rock paintings are considered an important process.

